

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

5111700 - “Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish” ta'lim yo'nalishi

CHORIYEVA ASAL NURMAMATOVNANING

**“SINFDAN TASHQARI O'QISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH USUL VA
VOSITALARI (boshlang'ich sinf o'qish darslari misolida)”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbari: kat. o'qit. Achilov N.

Termiz – 2017

Mundarija

Kirish.....	3-8
I. Bob. Sinf dan tashqari o'qish darslarining ilmiy nazariy asoslari	9-33
I.1. Sinf dan tashqari o'qish dasturining mazmuni, maqsad va vazifalari.....	9-23
I.2. Sinf dan tashqari o'qish darslarini tashkil etishning mavjud imkoniyatlari.....	24-32
I. Bob uchun xulosa.....	32-33
II Sinf dan tashqari o'qish darslari samaradorligini oshirish usul va vositalari	34-67
II.1. Sinf dan tashqari o'qish darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish ijtimoiy zaruriyat sifatida.....	34-50
II.2. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida sinf dan tashqari o'qish samaradorligini oshirish usul va vositalari.....	51-62
II.3. Sinf dan tashqari o'qish samaradorligini oshirish borasidagi tajriba-sinov ishlari natijalari.....	63-65
II. Bob uchun xulosa.....	66-67
Umumiy xulosa va tavsiyalar.....	68-70
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	71-72
Ilovalar	

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, o'zbek xalqi azaldan o'zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta, farzandga mehr qo'yish, ularning qornini to'q, ustuni but qilish o'z yo'li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik paytidan boshlab, boshlang'ich sinf davridayoq axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, har tomonlama yetuk insonni tarbiyalash bugungi jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Komil insonni voyaga yetkazishda boshlang'ich ta'lim, shubhasiz, mustahkam poydevor rolini o'taydi. Boshlang'ich sinflarda olib boriladigan ta'limiy ishlarning asosiy yo'nalishlaridan biri o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish va ularda to'g'ri muomala odobini shakllantirish hisoblanadi. Bizning oldimizda turgan eng katta muammolarimizdan biri ham shu. O'quvchi yuqori sinfga chiqqanda birinchi galdagi muammo, o'quvchilarning nutqidagi kamchiliklar ekanligi aytiladi. Bu o'quvchining kitobni kam o'qishidan, o'qigan asar yuzasidan og'zaki hikoyalash malakasi rivojlanmaganidan dalolat beradi. Shu boisdan ota-ona bilan hamkorlikda ishlagan holda ularni tez-tez darslarga, tadbirlarga taklif qilib turish ham maqsadga muvofiqdir. Ota-ona uyda farzandi uchun pedagog ekanini his qilishi, shuning uchun kitobni avval o'zlari o'qib namuna bo'lishlarini tushunib yetishlari zarur. Bundan tashqari, ota-ona o'zlari televizor qarshisida o'tirib olib farzandiga kitob o'qishini ta'kidlashi noo'rin ekanini anglaydilar. Shularni nazarda tutgan holda «Sinf dan tashqari o'qish», tarbiyaviy soat va to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish uchun ota-onalarni taklif qilgan holda noan'anaviy darslar tashkil etilmoqda. Bunda dars yana ham qiziqarli bo'lishi uchun vaqtdan unumli foydalanish maqsadida o'quvchilarga topshiriqlar oldindan beriladi. Jumladan, «Kitob haqida qiziqarli ma'lumotlar», «Bolalar shoiri va yozuvchilaridan kimlarni bilasiz?», «O'qigan kitobingiz haqida ma'lumot bering. Uning muallifi va nomini bilasizmi?» kabi mavzular ilgari suriladi. O'quvchi rag'bat olish maqsadida biror bir kitob sotib olishga, kutubxonaga a'zo bo'lishga yoki aka-opalari o'qib bo'lib, unga tavsiya qilgan kitobni qo'lga olishga harakat qiladi.

O'qituvchi tomonidan berilgan bunday qiziqarli ma'lumotlarni Internet tarmog'i orqali, gazeta, jurnallardan, badiiy adabiyotlardan foydalangan holda yig'ib kelish o'quvchiga ham mas'uliyat, ham zavq bag'ishlaydi. Olib kelgan ma'lumotlar tinglanadi va xulosa qilinadi. Kitob, kitob mutolaa qilish haqidagi topshiriqlar bajarilib bo'lingach, kitob va planshet, ya'ni zamonaviy texnikada aks etgan ma'lumotlar taqqoslanadi. Bu o'quvchilar o'rtasida bahs-munozaraga sabab bo'ladi. Ba'zi o'quvchilar kitob o'qish o'rniga planshetdan foydalansa ham bo'ladi, degan xulosaga keladi. Planshetdan foydalanish, uning qulayliklari: axborot-ma'lumotlarni yig'ish, o'yin o'ynay olishi, musiqa tinglashi haqida aytadi. Ba'zi noqulayliklari ham sanab o'tiladi. Masalan, uyda birdan chiroq bo'lmasa undan foydalana olmaslik, yoki undagi manbaning, ya'ni asarning biror-bir sabab bo'lib o'chib ketishi, dars jarayonida foydalanayotgan vaqtda qo'lidan tushib ketishi, unga suv to'kilib ketishi kabi kamchiliklari sanab o'tilsa, kitobga bo'lgan hurmat yana ham ortadi.

Ayrim o'quvchilar kitobning afzalliklaridan: uni o'qib bo'lib do'stiga, uka-singillariga sovg'a qila olishi, bir necha yil uni saqlab qo'ya olishi, xohlagan payt qo'lga olib o'qiy olishi haqida fikr bildiradilar. Dars jarayoniga taklif etilgan ota-onalar ham o'zlarining fikr- mulohazalarini bildirish uchun darsni kuzatadilar.

O'qituvchi va ota-ona hamkorligini his qilgan o'quvchida faollik kuchayadi. Darsni kuzatgan ota-ona o'z farzandining tengdoshlari o'rtasida o'zini tutish odobini, faolligini, bilimini xolis baholashga erishadi. Agar farzandi darsda faol bo'lmasa, nima uchun faollik yetishmadi, unga yana qanaqa yordam kerakligi haqida mulohaza qiladi. Farzandi uyda kitob o'qiydimi, u bilan vaqtda shug'ullanadimi, unga yetarlicha e'tibor berilyaptimi, shularni xulosa qiladi. O'quvchi ham, ota-ona ham kitob haqida, bolalar shoir va yozuvchilari haqida, kitob o'qiganda avval muallifiga e'tibor berish kerakligini biroz bo'lsa-da tushunib yetadilar. Kitob tanlash ham mahorat talab qiladi. Nomi juda jozibali bo'lsa ham, ma'nosi sayoz, oldi-qochdi bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, mashg'ulotlar vaqtida kichik sahna ko'rinishlari, she'riyat daqiqalari uyushtirilib turiladi. Shu o'rinda «Eng yaxshi suxandon», «She'riyat

malikasi», «Eng yaxshi rol ijrochisi», «Sahna malikasi»...kabi ragʻbatlar ham muhim oʻrin tutadi. Oʻquv yili oxirida oʻquvchilarning faolligini oshirish uchun kutubxonalarga, kitob bayramlariga sayohatlar uyushtiriladi. Taʼtil vaqtida oʻquvchilarni band qilish maqsadida har xil tanlovlar oʻtkaziladi.

Xususan, boshlangʻich sinflarda sinfdan tashqari oʻqishga kichik yoshdagi oʻquvchilarni taʼlim olishida qoʻshimcha darsni oʻzlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, taʼlim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari oʻqishning maqsadi, boshlangʻich sinf oʻquvchilarini bolalar adabiyoti va xalq ogʻzaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklab tarkib toptirishdir.

Sinfdan tashqari oʻqish dasturining mazmuniga koʻra taʼlimning har bir bosqichida ikki asosiy boʻlim ajratiladi: 1-bosqichda oʻqish doirasi, yaʼni oʻqitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda oʻqish bilan tanishtirish yuzasidan oʻquvchilarga koʻrsatma beriladi. 2-bosqichda esa, shu oʻquv materiallari asosida bilim, koʻnikma va malakalar shakllantiriladi. Umumiy oʻrta taʼlimning Davlat standartlari va oʻquv dasturiga koʻra 1-sinfda sinfdan tashqari oʻqish mashgʻulotlarida savod oʻrgatish darslarida hosil qilingan koʻnikma va malakalar asosida bolalarning ona-vatan, istiqloq, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlar-tushunchalari kengaytiriladi, boyitiladi.

Oʻqish darslariga qoʻyilgan zamonaviy talablar oʻqituvchidan boshlangʻich sinf oʻquvchilarini oʻqishga jalb qilish, badiiy adabiyotni sanʼatning bir turi sifatida qarashga, asarlarning badiiy mazmunini, estetik ahamiyatini va obrazlar mazmunini tushunishiga eʼtibor qaratish talab etiladi. Taʼlimning anʼanaviy tizimidan farqli ravishda innovatsion texnologiyalar asosida oʻqish darslarining uning har bir etapida oʻquvchining faolligiga asoslangan mustaqil faoliyati, oʻzlashtirish qobiliyatini hisobga olgan holda taʼlim jarayoniga toʻliq jalb etish yotadi. Boshlangʻich sinf oʻqituvchisi Davlat taʼlim standarti boʻyicha bolalarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va oʻz-oʻzini anglash salohiyatini shakllantirishga, erkin fikrlay olish, oʻzgalar fikrini

anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish ko'nikmalarini egallashlariga erishishi lozim. Shu boisdan ham boshlang'ich sinflar o'quv jarayonidagi bir xillikga barham berish dars jarayonini turli tumanligini, rang barangligini ta'minlash maqsadida ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalarini keng joriy etishga mo'ljallangan o'quv-metodik qo'llanmalarni yaratish va tadbqiq qilish davr talabidir. Shu bilan birga dars jarayonida maxsu tayyorlagan multimediali ilovalardan, videolavhalardan, turli animatsion materiallardan foydalanib o'quv jarayoni tashkil qilinganda, o'quvchilarning amaliy tafakkur va tasavvurlarini shakllantirishda mavzuga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi va tez tushunib olishlariga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, dars davomida o'quvchilar charchab qolmasligi va zerikmasliklari uchun musiqali dam olish daqiqalari ham tashkil etilishi maqsalga muvofiqdir. Muammoning dolzarbligi, nazariy-pedagogik va amaliy holatidan kelib chiqib, biz bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini, **“Sinf dan tashqari o'qish samaradorligini oshirish usul va vositalari (boshlang'ich sinf o'qish darslari misolida)”** deb nomladik.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturiga ko'ra 1-sinfda sinf dan tashqari o'qish mashg'ulotlarida savod o'rgatish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida bolalarning ona vatan, istiqloq, milliy qadriyatlar haqida ta'lim sohasida Q.Shodiyeva, F.R.Qodirova, M.R.Qodirova, Y.Razbayeva, Q.Abdullayeva, K.Nazarov, Sh.Yo'ldosheva, K.Qosimova, S.Matchonov, Sh.Sariyev, O.Roziqov, M.Mahmudov, B.Adizov, A.Hamroyev va boshqalar qator o'quv qo'llanmalar, darsliklar, uslubiy qo'llanmalar yaratganlar.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: sinf dan tashqari o'qish mashg'ulotlari samaradorligini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti: boshlang'ich sinf sinf dan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: sinf dan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarni badiiy kitoblar axtarish, asar qahramonlarining

nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb metodik manba ekanligini aniqlash, ularning didaktik asosini belgilash.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- tanlangan mavzu bo'yicha ijtimoiy-pedagogik, falsafiy-ma'rifiy, ilmiy-metodik hamda o'quv adabiyotlarni o'rganib chiqish va umumlashtirish;
- mavzuga oid adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish asosida sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini shakllantirishga oid mashg'ulot mazmuni, maqsadi va qurilishini o'rganish hamda qayta takomillashtirish dolzarb muammo ekanligini aniqlash;
- sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlariga oid mashg'ulotlarning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar asosida dars ishlanmalarini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy farazi: sinfdan tashqari o'qish samaradorligi quyidagi holatlarda yuqori bo'lishi mumkin, agarda:

- sinfdan tashqari o'qish samaradorligi muayyan tizimga ega bo'lgan mazmun, shakl va metodlari ishlab chiqilsa;
- sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari muayyan ilmiy-pedagogik tavsiyalarga tayangan holda tashkil etilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq o'gzaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirib borilsa.

Bitiruv malakaviy ishda qo'llanilgan metodlar:

- mavzuga oid falsafiy, sotsiologik, pedagogik, psixologik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;
- sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini o'rganish va pedagogik tajribalarni umumlashtirish. Kuzatish, suhbat, anketa so'rovnomalari, mustaqil ishlash, pedagogik tajriba va sinov ishlari.

Bitiruv malakaviy ish ikki bosqichda olib borildi:

Mavzuga oid tegishli adabiyotlar o'rganildi va muammoning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilindi. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarining hozirgi holati

o'rganildi. Shuningdek, ishning maqsadi, ob'ekti, predmeti, vazifasi va ilmiy farazi aniqlandi.

Ikkinchi bosqich – tajriba - sinov ishlari Termiz shahar 9-umumiy o'rta ta'lim maktabining 2-sinflarida olib borildi.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, Ozbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi" farmoni, O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlarlardan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi: sinfdan tashqari o'qishning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq o'gzaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklashga oid mashg'ulot ishlanmalarini, uning maqsadi, mazmuni, tipi, qurilishiga oid yangi tushunchalari bilan boyitishning didaktik asoslari ko'rib chiqildi hamda ilmiy-metodik tavsiyalar bilan boyitish nazarda tutildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy va amaliy ahamiyati: tajriba jaryonida ishlab chiqilgan dars ishlanmalari va amaliy tavsiyalardan sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi: kirish, 2 bob, 5 paragraf, xulosa va tavsiyalar, ilova, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I.Bob. Sinfdan tashqari o'qish darslarining ilmiy nazariy asoslari

I.1. Sinfdan tashqari o'qish dasturining mazmuni, maqsad va vazifalari.

Ma'lumki, ta'lim asosida jamiyat rivojlanishining obektiv ehtiyojlari turadi. Ta'lim insonning mehnat olamiga samaraliroq kirishini, jamiyat hayotiga qo'shilishini ta'minlaydi. Mustaqillikka erishib, erkin bozor munosabatlari asosida demokratik huquqiy davlat sifatida shakllanish yo'liga o'tgan O'zbekistonda hozirgi bosqichda Xalq ta'limi tizimiga, yosh avlodda mustaqillik va faollikni, ishbilarmonlik va tadbirkorlikni shakllantirishga jiddiy e'tibor bermoqda.

Ta'lim - jarayon bo'lib, u natija va tizimdir. Ta'lim jarayon sifatida bilimlar, ko'nikma va malakalarning ma'lum yig'indisini, faoliyat va munosabatlarning tegishli tajribasini o'zlashtirishga qaratilgan maxsus ishlarning tashkil qilinishidir. Ta'lim natija sifatida bilimlarni, faoliyat va munosabatlar tajribasini o'zlashtirishda erishilgan darajadir. Ta'lim tizim sifatida davlat muassasalari va boshqarish organlarining majmuasi bo'lib, ular doirasida insonni tarbiyalash jarayoni amalga oshiriladi. SHu tarzda, ta'lim doimo bir yo'la tarbiyalash jarayonini ham, o'qitish jarayonini ham ifodalaydi.

Yosh avlod haqida gap borar ekan, shaxsning kamol topishi, o'z mavqeyini anglash va o'zini ko'rsatish masalalari birinchi o'rinda turadi. Bu masalalar butun jamiyat va maxsus yaratilgan ijtimoiy institutlar va insonning o'zi tomonidan tasodifiy ravishda ham, maqsadga muvofiq yo'sinda ham hal qilinishi mumkin. Ta'lim tizimida shaxsning ijtimoiylashuvi, kasbni egallashi va moslashuvi jarayonlarini maqsadga muvofiq tarzda boshqarishga ham da'vat etilgan.

Ta'lim deganda: shaxsning jismoniy va ma'naviy kamol topish jarayonini, uning ongli ravishda ayrim ibratli qiyofalarga yo'nalishi va tarix maydoniga kelib, ijtimoiy ongda malum darajada yorqin iz qoldirgan ijtimoiy namuna (masalan, Sparta jangchisi, xushaxloq ruhoniy yoki serg'ayrat ishbilarmondek) bo'lishi, har tomonlama barkamollikka intilish jarayonini tushunish mumkin. Ana shu tushunchaga ko'ra, ta'lim butun jamiyat va shaxslar hayotining ajralmas jihati sifatida namoyon bo'ladi va so'zning keng ma'nodagi «tarbiya» tushunchasiga o'xshaydi.

Lekin ko'p ma'noliligi ko'rsatilmasa «ta'lim» so'zini to'liq anglab bo'lmaydi. Masalan, ta'lim deganda ma'lum hajmdagi bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tushuniladi. Ta'limga shaxsni o'qitish va kamol toptirish jarayonini tegishli yo'sinda tashkil etish sifatida qarash ham mutlaqo to'g'ridir. Bulardan tashqari, shubhasiz, ta'lim bilimlar, ko'nikma hamda malakalarni berish va o'zlashtirish bilan bog'liq faoliyat tizimi, shuningdek, ma'lum ijtimoiy institut (o'ziga xos vazifalarni bajarish uchun tuzilgan muassasalar tizimi) dir.

Ko'ramizki, ta'lim turli shakllarda namoyon bo'ladigan ko'p qirrali hodisa (daraja, jarayon, faoliyat)dir. O'quv-tarbiya jarayoni tizimining tuzilishi, ana shu jarayonning mazmuni, o'qituvchilar va o'quvchilarning faoliyati, shuningdek, amalga oshirilgan ishlarning natijasi mazkur tizim jamiyatning qanday tarixiy tipiga mansubligiga bog'liqdir. Mana shularning hammasini hisobga olib, quyidagilarni aytish o'rinlidir: ta'lim - nisbatan mustaqil tizim bo'lib, uning vazifalari jamiyat a'zolarini muntazam ravishda o'qitish va tarbiyalash orqali ularni ma'lum boyliklar, ko'nikma va malakalar hamda axloq normalari bilan qurollantirishdir. Ana shunday o'qitish va tarbiyalashning mazmunini pirovard natijada mazkur jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimi hamda moddiy-texnik taraqqiyotining darajasi belgilaydi.

Endilikda har bir xalqning faqat o'z milliy madaniyati asosida o'qishi va tarbiyalanishi yetarli emasligi, u jahon madaniyati boyliklarini ham anglashi zarurligi to'g'risidagi fikrlar tasdiqlanmoqda. Bilimdon kishilarni tarbiyalashdek an'anaviy vazifa o'rniga atroflicha fikr yuritadigan ijodkor kishilarni kamolga yetkazish vazifasi olg'a surilmoqda. Ilgari ma'lumotlilik darajasi o'rganilgan qoidalar, tahlil qilingan asarlar, yodlangan she'rlarning soni va bir xil masalalarni yechish ko'nikmasi bilan belgilangan bo'lsa, hozirgi kunda bu daraja miqyosi kengaydi. Eng muhim masalalarni qo'ya bilish har qanday ishga ijodiy yondashish kabi xislatlar ma'lumotlilik darajasini ko'rsatadi.

Ayniqsa, Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari o'qishga kichik yoshdagi o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim

jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinf dan tashqari o'qishning asosiy maqsadi kichik yoshdagi o'quvchilarni bolalr adabiyoti va xalq o'gzaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdan iboratdir.

Sinf dan tashqari o'qish dasturining mazmuniga ko'ra ta'limning har bir bosqichida ikki-asosiy bo'limga ajratiladi.

Birinchi boshqichda o'qish doirasi, ya'ni o'qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o'qish bilan tanishtirish yuzasidan o'quvchilarga ko'rsatma beriladi.

Ikkinchi bosqichda shu o'quv materiallari asosida bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

Umumiy o'rta ta'limning Davlat standartlari va o'quv dasturiga ko'ra STO'1-sinfda sinf dan tashqari o'qish mashq'ulotlarida savod o'rgatish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida bolalarning ona vatan, istiqloq, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlari kengaytiriladi, boyitiladi.

Sinf dan tashqari o'qish va qiroatxonlik savodlari 1-sinfda haftada 1 marta savod o'rgatish darslarining 20 daqiqasida bolalar badiiy adabiyot bilan tanishtiriladi. Maqsad kichik yoshdagi bolalarda kitobga mehr uyg'otish, mustaqil o'quvlarini paydo qilishdir. Asosan bu sinf o'quvchilariga kitob bilan muamola qilish, kitob o'qish qoidalari, kitobni asrash, asar qahramonlarining hatti-harakatlarini kuzatish, ijobiy tamonlarni o'rganish, obrazli qilib qayta hikoya qilib berish, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir. Bu sinf o'quvchilari uchun asosan rasmlarga boy kitoblar olinadi. O'qituvchi bolalarning his-tuyg'ularini o'stiradigan kitoblarni o'qib berish orqali mustaqil mamlakatimiz, uning go'zal shaharlari, qishloqlari, milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini, o'tmishi, insonlarning orzu-istaklari bilan tanishtiradi. Ularda bilimga havas uyg'otadi.

2-sinfda o'quvchilar kichik hajmdagi asarlarni o'qituvchining yordami va topshirig'i asosida mustaqil o'qishga o'tadilar. Bu sinfda 2 haftada bir marta sinf dan tashqari o'qish darslari o'tkaziladi. Ona-Vatan va ota-bobolar jasorati, o'simliklar,

qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlarini o'qituvchi topib, tanlab o'quvchilarga o'qish uchun tavsiya qiladi.

3 va 4-sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil o'qishlari uchun kishilarning hayoti, yorqin tasvirlardan, ularning ma'naviy-axloqiy turmush tarzi aks ettirilgan badiiy va ilmiy-ommobop asarlar tavsiya etiladi.

3-4- sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslari ikki haftada bir marta o'tkaziladi. Bu sinflarda o'qituvchi sinf kutubxonasida kerakli bo'lgan o'quvchilar yoshiga mos kitoblarni o'qish darslari ikki haftada bir marta o'tkaziladi. Bu sinflarda o'qituvchi sinf kutubxonasiga kerakli bo'lgan o'quvchilar yoshiga mos kitoblarni to'plashni davom ettiradi. Sinfdan tashqari o'qish burchagi turlicha bezatishi mumkin. Bunda o'qituvchi va o'quvchilar hamkorlikda ish olib boradilar. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil oqib borilsagina, o'quvchilarning dunyoqarashlarini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, bog'lanishli nutqni o'stirish, adabiy-estetik tafakkurlarni yuksaltirishga xizmat qiladi. Bolalar adabiyoti avvalo o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarning go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. Bolalar adabiyoti o'quvchilarga jonajon o'lka, tabiyatini, kishilarning mehnati, hayoti, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklari, bolalar hayotidan olingan voqelikni, bolalarning o'yinlarini tushunishga o'rgatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish malakasi bilan qurollantirish bilan bir qatorda kitobni mustaqil o'qiy oladigan, uni tushunadigan, ma'lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil o'qiydigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jihatdan sinfdan tashqari o'qish (STO) tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko'p narsani bilishga havasni orttiradi.

STO' ning asosiy maqsadi o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalashdir.

Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus STO' darslari tashkil etilgan. STO' darslari 1-2-sinfda haftada 1 marta, 3-4-sinfda 2 haftada 1 marta o'tkaziladi. Savod o'rgatish jarayonida esa haftadagi oxirgi alifbe darsining 17-20 daqiqasi ajratiladi.

Sinfdan tashqari o'qish o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish talab etiladi. O'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir. Bunda o'qish uchun ajratilgan soatlardan foydalaniladi.

Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina, o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish tanish bo'lmagan mualliflarning kitoblari muqovasi, titul varag'i, kirish so'zi, mundarijasi va suratlariga qarab asarning taxminiy mazmunini aniqlashga o'rgatish vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchida badiiy kitoblarni o'qishga havas uyg'otish, o'qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita olishga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish hisoblanadi. Bu borada ham mamlakatizda qator chora-tadbirlar tashkil etilmoqda. Ayniqsa, Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan 2017 yil 12 yanvarda "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish" to'g'risidagi farmoyishni qabul qilinishi fikrimizning yaqqol dalilidir. Farmonda: aholi, ayniqsa, yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga xizmat qiladigan kitoblarga bo'lgan talabni o'rganish, shu

jumladan, ijtimoiy so'rovlar orqali aniqlash, nashriyotlar tomonidan chiqariladigan badiiy, ma'rifiy, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishga doir adabiyotlarning (shu jumladan, elektron shaklda) umumiy buyurtma ro'yxatini shakllantirish tizimining holatini aniqlash; chop etilayotgan kitoblarni aholi o'rtasida ommaviy axborot vositalari, jumladan, "Madaniyat va ma'rifat" telekanali orqali targ'ib qilish, ta'lim muassasalari, kutubxonalar, mahallalarda kitob mualliflari bilan ijodiy uchrashuvlarni tizimli ravishda tashkil etish hamda ta'lim muassasalari, ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda o'qish madaniyati va mutolaa ko'nikmalarini shakllantirish; ta'lim muassasalarida sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan o'zbek va chet el adiblarining mumtoz va zamonaviy asarlarini tanlab, xrestomatiya adabiyotlari ro'yxatlarini qayta ko'rib chiqish va o'quv jarayoniga mutolaa etilgan asarlar asosida insho yozish tizimini joriy etish, adabiyot to'garaklari faoliyatini moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini qayta qo'rib chiqish¹ masalalari alohida qayd etilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlari yaratish va o'quvchilarga yetkazishning mustahkam tizimi yaratildi, bunda O'zbekistonda ta'lim berilayotgan yettita tilda darslik va o'quv qo'llanmalari nashr etilmoqda. Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarining moddiy-texnika bazasi yangilanib, zamonaviy elektron kutubxonalar tizimlari faoliyat ko'rsatmoqda. Matbuot, noshirlik va axborot sohasida tegishli huquqiy asos yaratilgan bo'lib, 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti hujjati qabul qilingan. 1 677 ta matbaa korxonasi, 118 ta nashriyot davlat ro'yxatiga olingan. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 14 ta viloyat axborot-kutubxona markazi, tuman markazlari va shaharlardagi ta'lim muassasalarida 200 ga yaqin axborot-resurs markazi tomonidan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari hamda "Kitob olami", "SHarq ziyokori" va "O'zdavkitob savdo ta'minoti" majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Yozuvchilar uyushmasi huzurida tashkil etilgan "Ijod" jamoat fondi

¹ "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoyishi 2017 yil 12 yanvar

tomonidan yozuvchi va shoirlar, ayniqsa, yosh ijodkorlarning birinchi kitoblari ko'p ming nusxada nashr etilmoqda. Chunki hamma narsaning kaliti kitobdir. Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ularning bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o'qish darslarining ham tub mohiyatini tashkil etadi.

STO' darslarining muhim vazifalaridan biri mustaqil o'qish malakalarini tarbiyalash hisoblanadi. Buning uchun mustaqil bajarish uchun topshiriqlar berish, qiziqarli mashq turlaridan foydalanish, eng yaxshi insholarni, taqrizlarni, yozuvchi haqida to'plangan ma'lumotlarni o'qitish, "Tez aytish", "Topishmoqlar topish", "Ifodali o'qish", "Maqollar aytish musobaqasi", "Ertak to'qish", "Bilimdonlar anjumani" kabi ko'rik-tanlovlar tashkil qilish, muayyan mavzular bo'yicha savol-javoblar uyushtirish, o'yin tarzidagi ish turlaridan foydalanish zarur. O'qilgan asarlar yuzasidan suhbatlar o'tkazish, "Kitob haftaligi" tashkil etish, asarlar asosida kichik insholar yozishni mashq qilish yaxshi samara beradi.

STO' sinfda o'qish bilan uzviy bog'liq ravishda uyushtiriladi. Sinfda o'qish STO' uchun zarur bo'lgan o'qish malakalarini shakllantiradi, o'quvchilarning o'qigan asarini tushunishga o'rgatadi, lug'atini boyitadi. STO' qiziqarli va o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfda o'qish - hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o'qish esa hayotning o'zidir.

Hozirgi paytda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sinfdan tashqari o'qishga mo'ljallangan "Kitobim - oftobim" (1-3-sinflar uchun) nomli qo'llanmalar ham chop etilgan. Sinfdan tashqari o'qishni tashkil qilish o'qituvchining zimasiidagi vazifa hisoblanadi. Bunda o'quvchi uni bosqichlarga ajratib tashkil qiladi. STO' darslari o'quvchilarda mustaqil kitob tanlash va o'qish malakalarini shakllantiradi. Mustaqil o'qish malakasini shakllantirish 3-bosqichga bo'linadi:

I. Tayyorlov bosqichi. Bu 1-sinfning savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Unga darsning bir qismi - 17-20 daqiqasi ajratilgani uchun "STO' mashg'uloti" deb yuritiladi. Uning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, o'qituvchi asarni o'zi tanlaydi, asarning kichik hajmda bo'lishiga va boshqa kitob tanlash tamoyillariga e'tibor

beradi. Asarni o'qituvchining o'zi o'qib beradi. O'quvchilar asarni eshitishga, eshitganlarini idrok etishga, ularga soddagina baho berishga, asar mazmuni bilan sarlavhasining mosligini aniqlashga, asar mazmunini hikoya qilib berishga o'rgatiladi. Bu bosqichda o'quvchilar o'qish gigiyenasi va kitobga qanday munosabatda bo'lish bilan tanishadilar.

2. Boshlang'ich bosqich. Bu 1-sinfning 2-yarim yiliga to'g'ri keladi. Bu bosqichda haftada 1 marta 45 daqiqalik dars uyushtiriladi. Asarni o'qishdan oldin o'quvchilar asar nomi va uning muallifi bilan tanishadilar, rasmlarini tomosha qiladilar, daftarlariga u haqda soddagina qilib asar muallifini va nomini yozadilar. Asar elementar tarzda tahlil qilinadi. Tanlangan asar (kitob) yaxshi o'qiydigan o'quvchiga maxsus tayyorgarlikdan so'ng o'qitiladi. Asarning oson o'qiladigan o'rinlarini bo'sh o'qiydigan o'quvchilarga o'qitish ham mumkin. Bu tilarda o'qishga qiziqish uyg'otadi. Bu bosqichda o'quvchilar har xil tezlikda bo'g'inlab o'qiydilar. Shuning uchun o'qituvchi bu jarayonda har bir o'quvchiga individual yondashishi, kichik kitobxonni kitobni mustaqil o'qishga o'rgata borishi lozim.

3. Asosiy bosqich. 2-4 sinfga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilarning o'qish malakalari mustahkamlanadi. Bu bosqichda o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qiganlariga baho quyiladi. Baho qo'yishda dastur talablariga asoslaniladi: sinfning umumiy ishlariga qatnashishi, o'qigan kitoblarining sifat o'zlashtirishiga miqdoriga, o'qigan kitobiga munosabat bildira olishiga e'tibor beriladi. Bunda o'quvchilar muayyan mavzuga doir bir necha asarlarni o'qib keladilar, ularning ayrim o'rinlarini ifodali o'qib beradilar, o'qigan asarlarini o'zaro taqqoslaydilar.

STO' darslarini xususiyatlari. STO' bosqichlari, dastur talablari, tarbiyaviy vazifalari, o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi. Masalan, tayyorlov bosqichida kichik hajmdagi asarni o'qituvchi o'qib bersa, o'qilganlari yuzasidan suhbat, qayta hikoyalash o'tkazilsa, boshlang'ich bosqichda butun sinf o'quvchilari bir xil kitob bilan ta'minlanadi, barcha o'quvchilar bitta matn ustida ishlaydilar. Bunda bitta yozuvchi yoki bir mavzudagi asarlar ko'rgazmasi tashkil qilinadi. Asar ichida o'qishga topshirilishi ham mumkin, albomlar tayyorlanadi, kinofilm,

diafilmlardan parchalar ko'rsatiladi, musiqiy daqiqalar o'tkaziladi, asar mazmuni yuzasidan ijodiy rasmlar chizdiriladi, kitobni saqlash maqsadida kitobni yamash, o'rash o'rgatiladi, «Ertaklar bayramlari», «Ifodali o'qish konkursi» o'tkaziladi.

Asar tahliliga doir ishlar kengaytiriladi, o'quvchilar o'qiganlarini taqqoslashga umumlashtirishga, xulosalashga o'rgatiladi. Qahramonlarni elementar tavsiflaydi. Rollarga bo'lib o'qishdan foydalaniladi. Asosiy bosqichda STO' darslari 2-sinfda haftada 1 marta, 3-4 sinflarda 2 haftada 1 marta o'tkaziladi. O'quvchilar mustaqil o'qishga o'rgatiladi, ular «G'uncha», «Gulxan» jurnalari bilan, «Tong yulduzi» gazetasi bilan tanishtiriladi, ya'ni bolalar matbuoti bilan tanishtiriladi. Bu bosqichda o'zbek, qardosh, chet el adabiyoti yozuvchilarining turli janrdagi, turli mavzudagi asarlaridan foydalaniladi. Qo'shimcha sahnalashtirishlardan foydalaniladi. Bir darsga o'quvchilar bir nechta asarlar o'qib kelib, ular haqida o'z fikrlarini aytib beradilar. Qahramonlarni tasvirlab rasm chizadilar. Yozuvchilar hayoti va ijodiga doir kechalar uyushtiriladi. Shu tarzda adabiyotni sevadigan, mustaqil fikr yurita oladigan kitobxon shaxsi shakllantiriladi.

Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlash tamoyillari. Tarixiy taraqqiyotning asosiy sabog'i shundan iboratki, insoniyat qo'lga kiritgan barcha moddiy, ma'naviy boyliklar avloddan-avlodga o'tganda vorislik ehtiyojiga bo'ysungan holda o'zlashtiriladi va undan fikriy quvvatlangan shaxslar tomonidan rivojlantiriladi. Hayotda va jamiyatda yuz beradigan barcha taraqqiyot omillarini shusiz tasavvur qilish qiyin. Shunday ekan, yosh avlodda fikriy quvvatlanish vazifasini amalga oshirish lozimki, buning asosiy yo'li ta'lim tizimini takomillashtirib borish orqali o'quvchilarni ilm-fan asoslari bilan yetarli darajada ta'minlashdir. Zero, "Ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi, - deb uqtiradi mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A. Karimov, - ularning hozirgi dunyo va axborot sivilizatsiyasi qadriyatlariga moslashishini ham anglatadi". Shunday ekan, o'zlashtirilgan bilim shaxsiy e'tiqod va dunyoqarashni shakllantiradi, ma'naviy-axloqiy kamolot sari yetaklaydi. Bunday mas'uliyat boshlang'ich ta'lim zimmasida qad rostlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga kitob barcha ilmlarning kaliti ekanligini tushuntirish amaliy sur'atdagi jonbozlikni talab etadi. O'qituvchi buni uddalay olishi, bolalarni qiziqtirgan tevarak-atorofdagi turli voqea-hodisalar kitoblarda mufassal yoritilishini o'rgatmog'i lozim. O'quvchilar kitobga mehr qo'yadi, turli janrdagi badiiy asarlar bilan tanishadi. Asta-sekin mustaqil o'qish, asarlardan zavqlanish, erkin fikrlash malakalari yuzaga keladi. O'qituvchidan to'g'ri yo'nalish olgan bolaning kitob o'qishga ishtiyoqi ortib boradi. Dastlab, ularga mustaqil o'rganish uchun tavsiyalanuvchi kitoblar shakl va mazmun mutanosibligiga ega bo'lib, muqovasi chiroyli ishlangan, bo'yoqli rasmlarga boy, yirik-yirik harflarda yozilgan, tili ravon, qiziq syujetli yoki tasvir vositalari tanishligi bilan diqqatni jalb qiladigan ko'rinishda taqdim etiladi. Shunda bolalarning kitobga muhabbati orta boradi hamda atrofga bilim nigohi bilan qarashga o'rganib, o'zligini kashf etishga kirishadi. O'quvchiga bilim berishdagi bosh maqsad ham xuddi ana shundadir. Zotan, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" davlat, jamiyat va oila oldida o'zligini tanigan, o'z javobgarligini his qiladigan shaxslarni tarbiyalashga o'ta mas'uliyat bilan yondashganligi bejiz emas. Ma'lumki, milliy dastur ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat buyurtmasi hisoblanib, milliy istiqloq g'oyalarining mazmun-mohiyatini yosh avlodga to'liq ochib berish uchun xizmat qiladi. Bolalar adabiyoti so'z san'ati va tarbiya vositasidir. Kichkintoylar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos, yosh kitobxonlar qalbida o'y-fikrlar uyg'otadigan, yorqin obrazlarga boy yuksak g'oylarga, ulkan va porloq ishlarga ilhomlantiradigan bo'lishi zarur. Eng muhimi mavzular tushunarli sodda va qiziqarli tilda ifodalanishi kerak.

Bolalar adabiyoti yoshlarni iymon-e'tiqodli kishilar sifatida va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda qudratli quroldir.

Faqat chinakam badiiy asargina bolalarga kuchli ta'sir ko'rsatib, ana shu yuksak talablarga javob beradi. Shu sababli bunday kitoblar pedagogik nuqtai nazardan ham alohida ahamiyatga ega. Bu yoshdagi bolalar kitobxonligi boshqa yoshdagilardan farq qiladi. Bu farq bolalarning yoshi va bilim saviyasi bilan bog'liq. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar, asosan tarbiyachilari, ota-onalari yordamida badiiy asarlar

bilan tanishsalar, boshlang'ich sinf o'quvchilari bu ishni mustaqil bajaradilar. Mustaqillik ularga ishonch va zavq bag'ishlaydi. Bu yoshdagi bolalar o'zlari mustaqil ravishda kitob o'qib qolmay, balki o'qigan kitoblaridagi qahramonning xatti-harakatlarini baholashga o'rganadilar, zarurat bo'lsa ular ko'rsatgan mardlik va jasoratlarni takrorlashga hozirlanadilar. Bu yoshdagi bolalarga xalqimizning shonli tarixi, bugungi xayoti haqida yozilgan turli janrdagi asarlarni tavsiya etish mumkin. "Shiroq", "To'maris" kabi afsonalar bilan birgalikda Oybek, G'afur G'ulom, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Hakim Nazir, Sh.Sa'dulla, A.Obidjon, T. Adashboyev, Qambar Ota va boshqalarning zamonaviy mavzudagi eng yaxsh asarlari muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Jahon bolalar adabiyotining A.Pushkin, L.Tolstoy, S.Servantes, D.Defo X.Svift, E.Voynich, K.Chukovskiy, S.Marshak kabi namoyondalar yaratgan asarlar bolalar dunyoqarashini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'rib o'tkanimizdek bolalar adabiyoti o'ziga xos xususiyati bilan kattalar adabiyotidan farq qiladi. Zotan, bolalar yozuvchisi dunyo voqealarini bolalar tasavvuri, tushunchasini nazarda tutib tasvirlaydi. Shu orqali kichkintoylarni olg'a intilishga chaqiradi, hayotni chuqur anglash va sevisishga yordam beradi.

Folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchahmasi hisoblanib kelinadi. Shuning uchun ham insoniyat alla, qo'shiqlar, ertak va dostonlarda o'zining yuksak orzu umidlari, zavq-shavqiyu kurashlarini ifodalagan. Xalq og'zaki ijodi o'zining mazmunan rang barangligi, yuksak g'oyalar bilan yo'g'rilganligi, xalq turmushi, mehnati, xullas xalq hayotining barcha tamonlari bilan uzviy bog'liqligi bilan ham g'oyatda etiborlidir. Bolalar folklorlari ko'pincha kattalar tomonidan ijod qilinadi (alla), ba'zi hollarda bolalar o'z o'yinchoqlari asosida o'zlari ham alla qo'shiq va ovunmashoqlar to'qiydilar. Bularning hammasi bir bo'lib faqat yaxshi tarbiyani targ'ib qiladi. Bolalar xalq og'zaki ijodining pedagogika bilan bog'lanishi alladan boshlanadi. Xalq og'zaki ijodining eng rivojlangan janrlaridan biri alladir. Alla bolalar beshikdaligida hali tili chiqmasidanoq boshlanadi va munis onalar tomonidan kuylanadi. Boshqacha qilib aytganda beshik qo'shig'i bolaga ona suti bilan kiradi.

Allalar poetik jihatdan ham, onalarning ichki tuyg'ularini bayoni sifatida ham xalq ijodining bo'lak turlaridan ajralib turadi. Ularni bolalrning onasi, tarbiyachisi ham aytadi (ona, enaga, keksa onalar, ba'zan otalar tamonidan ham aytiladi). Allalar bolani ovutish, uxlatish uchu mayin ovozda ijro qilinadi. Quyidagi onaning yurakdan aytgan allasida bola obrazi qisqa, ammo chuqur mazmunli so'zlar yordanida ifodalanadi.

Alla, bolam alla,
Jonim bolam alla.
Ikki ko'zim alla,
Shirin so'zim alla.
Alla bolam baxti bor'
Har narsaning vaqti bor.
Jonim bolam, alla,
Shirin bolam, alla,
Ikki ko'zim alla.

Allada yaxshi tarbiya ko'rgan bola jamoat o'rtasida, toy-tomoshalarda ota-onasining obro'yi, uning shuhrati sifatida tariflanadi. Shuningdek, bolaning to'g'ri tarbiyalanishida ota-onaning o'rni katta ekanligini ko'rsatadi. Bola yoqimli qo'shiqlar ohangini osongina o'rganib oladi. Alla bolaga zavq bag'ishlaydi, ma'naviy-tarbiyaviy ozuqa beradi.

Hozirgi zamon kitobxonlari, xususan, kichik maktab yoshidagi bolalar kitob dunyosini hayotdan uzilgan bir zavqlanish vositasi sifatida qabul qilmasligi zarur, balki ko'zga tashlanmaydigan yoki oddiy ko'nikmaga aylangan hayotni chinakam hikmatlar xazinasi ekanligini, unda ibratga molik mantiqlar to'lib-toshib yotganligini anglashi, botiniy olamini ma'naviy oziqaga to'yintirishi muhimdir. Shunda u Vatan kelajagini, xalq ertasini ilm taraqqiyoti bilan obod etish mumkinligini tushunadi, "Kitob - bilim manbai" degan hikmatning mag'zini chaqadigan bo'ladi. Ushbu fikrlar baland parvoz gaplardan iborat bo'lgan bir havas emas, balki jamiyat oldidagi ezgu maqsad ekanligini Milliy dastur va ta'lim standartlaridagi islohlarni tasdiqlab turadi.

Xususan, boshlang'ich ta'lim o'qish darslari rejasining keng qamrovli tuzilmaga egaligi, unda milliy mafkura, qadriyatlar, ajdodlarning boy ma'naviy merosi kichik maktab yoshidagi bolalar saviyasiga mos ravishda ravon, ma'nodor, rang-barang janrlarda berilishi sifat mezoni bilan o'lchanadigan targ'ibotdir. O'qish jarayoni bolaga, kitob-aql chirog'i, kitob-bebaho boylik ekanligini, uni asrab-avaylashni o'rgatadi. 2-sinfda kitob tilidan aytilgan shunday misralar bor:

Tanishaylik: men-kitob,

Asl bilimlarga kon.

Boylik beray behisob,

Boisang agar qadrdon.

Lekin yirtib, burdalab,

Kamaytirma yarog'im.

Sendan yana bir talab:

Iflos qilma hech yog'im.

Behisob boylik va'da qilayotgan kitobni bolaning yaqin do'stiga aylantirish maktab hayotidagi oliyjanoblik va eng maqbul g'amxo'rlikdir. Chunki komil inson tarbiyasini shakllantirishda unga teng keladigan murabbiy yo'q. Faqat yaxshi insoniy fazilatlarni tarkib toptiradigan kitoblarga o'quvchi mehrini torta olsak bas. Shunda biz yosh avlodni imon-e'tiqodli kishilar qilib Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda kitobning beqiyos rahnamo ekanligini isbotlagan bo'lamiz. Boshlang'ich sinf o'quvchisidagi kitobxon shaxsiyatiga uyg'unlashadigan badiiy, ommabop asarlarni bilib-saralab tavsiya qilish ularning ko'ngil mulkiga aylanadi. Buni ixcham tushunchalar bilan raqamlab ko'rsataylik:

1. Bolalarni xalq og'zaki ijodiga doir asarlarni o'rganishga undash. Ayniqsa, ertak, xalq qo'shiqlari, maqollar, tez aytishlar va dostonlar matnning ohangdorligi, so'z ma'nolarining aniqligi, obrazlarning xalqchilligi, qiziqarli syujetga egaligi bilan o'quvchilarni o'ziga tortadi. Ularga halollik tuyg'usini singdiradi, jasoratli bo'lishga, el-yurt manfaatini himoya qilishga o'rgatadi. Nutqiy ravonlik, aqliy barkamollik baxsh etadi. ("Zumrad va Qimmat", "Oltin tarvuz", "Dehqon bilan ayiq" kabi

ertaklar, “Go'ro'g'lining tug'ilishi”, “Ravshanxon”, “Alpomish”, “Avazxon” kabi xalq dostonlari va boshqalar.)

2. Vatan tarixi va milliy qahramonliklardan hikoya qiluvchi asarlarni o'rganishga da'vat qilish. O'quvchilarda bunday asarlar ko'tarinki ruh uyg'otadi, ona-zaminning benazir muqaddas ekanligini anglatadi, ayni paytda, jasorat bilan yashash insonni kelajak uchun faxrli va suyakli shaxsga aylantirishini his qiladi. (Oybekning “Bolalik” qissasi, Mirmuhsinning “Temur Malik” romanidan hikoyalar, A.Oripovning “Sohibqiron” dostonidan parchalar, Muhammad Alining “Sarbadorlar” romanidan hikoyalar, X.Davronning tarixiy esselari va boshqalar.)

3. Syujetli va lirik she'rlarni o'qish va yod olish tavsiyasi. Bundan kichik kitobxon nafosat tuyg'usiga erishadi. So'zda fikrni jilolantiruvchi xususiyatlar mavjudligini she'riy misralar vositasida o'rganadi. Ritmik jozibadan, so'zlar inoqlashuvi hosil qilgan ohangdoshlik-qofiyadan, jonlantirish, o'xshatish, sifatlash kabi badiiy tasvir vositalaridan qalbi zavq-shavqqa to'ladi. (Z.Diyorning “Suv bilan suhbat”, Sh.Sa'dullaning “Ozoda”, P.Mo'minning “Oltin nay”, “Dono bola”, M.A'zamning “Tuyg'ular”, T.Adashboyevning “Sovg'a”, A.Obidjonning “Siz eshitmagan qo'shiqlar”, S.Ochilning “Burgut”, H.Imonberdiyevning “Shokoladxo'rlar” kabi she'riy kitoblari va boshqalar.)

O'zbek va chet el bolalar adiblarining asarlarini o'qib tahlil qilishga o'rgatish. Bunda kichik yoshdagi kitobxonning dunyoqarashi kengayadi, badiiy obrazlarga xos bo'lgan xatti-harakatlarni tahlil qilishda insoniy xislatlarni bir-biriga qiyoslaydi, yaxshi sifatarni o'ziga olishga, yomon illatdan nafratlanishga o'rganadi. Bu esa uning komil shaxs bo'lib shakllanishida ijobiy rol o'ynaydi. (X.To'xtaboyevning “Sariq devni minib”, “Sariq devning o'limi”, H.Nazirning “Meni taniysizmi?”, F.Musajonning “Tekin tomosha”, L.Mahmudovning “Tog'da otilgan o'q”, A.Obidjonning “Dahshatli Meshpolvon”, Charl Perro, Aka-uka Grimmlar, L. N. Tolstoy, K. I. Chukovskiylarning o'zbek tiliga o'girilgan asarlari va boshqalar.)

5. Ekologiya, fan, texnika va hunarga doir badiiy, ilmiy-ommabop asarlarni o'qish va kichik kitobxonga mo'ljallangan kundalik matbuot nashrlarini o'rganishga

jalb etish. Bu narsa o'quvchilarni zamon bilan hamnafas bo'lishga, ijodkorlikka, hunar o'rganishga, fan-texnika yutuqlaridan ilhomlanishga da'vat etadi.

STO'ning asosiy vazifalaridan biri STO' uchun kitoblar tanlash, o'qiladigan adabiyotlar ro'yxatini tavsiya qilish, yillik o'quv rejasi va dars tuzilishi namunalarini ishlab chiqishdir. Sinf dan tashqari o'qish uchun kitob tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

1. Kitob tanlashda tarbiyaviy maqsad ko'zda tutiladi. Bunda o'quvchilarga vatanimiz o'tmishi, mustaqillik uchun kurash, xalq qahramonlari, xalq turmushi haqidagi, oilada, maktabda va jamoat joylarida o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan axloqiy muammolar haqidagi, tabiat va uni asrab-avaylash haqidagi kitoblar tavsiya etiladi.

2. Kitob tanlashda asarlar janri va mavzusining xilma-xilligi e'tiborga olinadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar, asosan, hikoyalar, ertaklar, she'rlar, topishmoqlar, maqollarni o'qishga qiziqqanlari uchun shu janrdagi asarlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Kitobning o'quvchilar yoshi va saviyasiga mosligi hisobga olinadi. 1-sinfda kichik hikoya va ertaklarni o'qish tavsiya etilsa, 2-4-sinflarda mavzular doirasi kengaytirilib, kundalik turmushda ro'y berayotgan turli voqealar tasvirlangan asarlar, gazeta va jurnallardagi kichik hajmli xabarlarini o'qish ham tavsiya etilishi mumkin.

4. Kitob tanlashda o'quvchilarning shaxsiy qiziqishi va mustaqil o'qishi hisobga olinadi. Bunda o'quvchilar o'ziga qiziqarli bo'lgan o'zbek va xorijiy bolalar adabiyoti yozuvchilarining asarlarini o'zi tan-lashi muhim ahamiyatga ega.

5. Kitob tanlashda mavsumiy tamoyilga amal qilinadi. Umuman olganda, kitobni to'g'ri tanlash sinf dan tashqari o'qish muvaffaqiyatini ta'minlashning muhim shartidir.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi hozirgi zamon boshlang'ich sinf o'quvchisi komil inson bo'lish tarbiyasini kitobdan o'rganadi. Kitobga mehr qo'yish esa uni istiqboli ravshan bo'lgan orzular sari yetaklaydi. Sinf dan tashqari o'qish bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, bog'lanishli nutqni o'stirish, adabiy-estetik tafakkurlarni yuksaltirishga xizmat qiladi. Xususan, bolalar

adabiyoti esa o'quvchilarga jonajon o'lka, tabiyatini, kishilarning mehnati, hayoti, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklari, bolalar hayotidan olingan voqelikni, bolalarning o'yinlarini tushunshga o'rgatadi.

I.2. Sinf dan tashqari o'qish darslarini tashkil etishning mavjud imkoniyatlari

Boshlang'ich ta'lim har qanday jarayonda ham o'quvchilarda bilimlarni shakllantirishda va ularning qobiliyatlarini aniqlashda asosiy rol o'ynaydi va undan keyin ham shunday bo'lishi kerak. Ammo boshlang'ich maktabdagi barcha o'qituvchilar bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun tegishli ishlarni amalga oshirayaptimi?. Masalan, nima uchun yuqori sinflarda a'lo bahoga o'zlashtiradigan bolalar soni kamayib bormoqda?. Maktabni bitta yoki ikkita o'quvchi a'lo baholar bilan bitirishini qanday tushunish kerak?. Iste'dodli, qobiliyatli bolalar yo'qmi yoki o'qitish jarayoni shunchalik samarasiz bo'lib qolganmi?. Bularning sababi nima?. Sababi ko'p. Birinchidan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolalar bilan induvidal ish olib borish imkoniyati cheklangan. Sinflarda bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarga alohida e'tibor berish zarur. Ikkinchidan, ba'zi o'qituvchilarning metodik saviyasi yetarli emas. Sinfdagi umumiy ishlar jarayonida qobiliyatli bolalarning ijodiy imkoniyatlari cheklanib qolmoqda. Ular o'z qobiliyatlarini ko'rsata olmayapti. O'qituvchi kuchi va e'tibori butun sinfga qaratilib, qobiliyatli bolalar ko'zga tashlanmayapti. Umumiy aytganda, xususan bolalarni saralash va o'qitishga boshqacha yondashish bilan ularning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish kerak.

Ana'anaviy dars o'tish jarayonida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlar foydalaniladi. Shu sababli bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lim jarayoning passiv ishtirokchisiga aylanib qoladilar. Bolalarda betinim jiddiy dars beraverish, ustma-ust nazariy bilimlar, qoidalar bilan qurollantiraverish ularni o'qishdan bezdirib qo'yadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarida bunday hol ko'p uchraydi.

Buning oldini olish uchun nima qilish kerak?. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayoni oqilona tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rivojlantirib turilishi, o'quv mavzuni kichik-kichik bo'laklarga bo'lib ularning mazmunini ochishda bahs-munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar kabi interfaol metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollar keltirish, o'quvchilarni amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajarishga undash, har xil baholash usullari va ta'lim vositalaridan joyida va o'z vaqtida foydalanish talab etiladi.

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari o'qish darslari bilan bog'lab olib boriladi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligi ostida avval mavzuga oid bir necha kitob bilan tanishsalar, so'ngra bolalarning qiziqishlariga yaqin har xil mualliflarning bir mavzuga doir kitoblarini mustaqil tanlab olishga o'tadilar. Bunga asosan o'qituvchi o'quvchilar bilan maktab kutubxonasiga, 3-4- sinflardan boshlab tuman yoki shahar kutubxonasiga sayohat uyushtirib, bolalar adabiyoti bilan muntazam tanishtirib boraradi. Shuningdek, bolalar gazeta va jurnallari ham o'quvchilarga ertak, hikoyalar o'qishga yordam beradi.

Xalqimizning tarixi, uning urf odatlari, moddiy va ma'naviy boyliklari, barcha orzu-istaklari yillar davomida yaratilgan ertaklarda saqlanib kelmoqda. Kishilar o'z orzu havaslarini yosh avlodlarda o'g'il-qizlarida ko'rishni istaydilar. Shu sababdan ham o'quvchilarga ertaklarni o'qishga tavsiya qilinadi. Ertak o'qigan bolalar qiyinchilikni yengishga, botir, jasur bo'lishga intiladilar. O'quvchilar yer yuzidagi barcha insonlarning men bir bo'lagiman, men o'z xalqimga qilayotgan ishlarim bilan ularga munosib bo'lib ulg'ayishim kerak, desalargina o'z xalqini munosib farzandlari bo'la oladilar. Ertaklar yosh avlodni ana shu ruhda tarbiylaydigan baynalminal badiiy quroldir. "Uch og'ayni botirlar", "Zumrad va qimmat", "Egri va To'g'ri" kabi bir qator ertaklar o'quvchilarning sevimli ertaklaridir. O'quvchilar bu ertaklardan kishi o'z mehnatiga ishonib yashashni

kerakligini, birovning boyligiga hasad bilan qaramaslik kerak, degan hayotiy xulosalarni o'qituvchi yordamida tushinib yetadilar.

“Ur to'qmoq” ertagining bola xarakterining shakllanishida alohida o'rni bor: ertak yaxshiga-yaxshi, yomonga-yomon bo'lish kerak, degan muhim qoidani o'rta tashlaydi. Haqiqatdan ham xalqimizning “Qaynar xumcha”, “Ochil dasturxon”larini zo'rovonlik bilan tortib oladigan shaxslarga nisbatan “Ur to'qmoq”larni ishlatish zarurligini uqtiradi.

Sinfdan tashqari o'qish darslari, o'qish samaradorligini ijobiy tomonga ta'sir qilishning eng qulay usulidir. Sinfdan va sinfdan tashqari o'qish darslari boshlang'ich sinflarda o'tiladigan barcha predmet darslarining bo'limlari bilan bevosita bog'liq. O'qish darslarida o'tilgan mavzular asosida badiiy kitoblar axtarish, asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish o'quvchini ijod qilishga undaydi.

Har bir sinfdan sinfdan tashqari o'qilgan barcha asarlarni o'quvchilarga mos ravishda biror voqeani sahnalashtirish mumkin. Bu boladagi nutqni rivojlantirishga, lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. Shungdek, sahnalashtirilgan asarni tomosha qilgan o'quvchilarning diqqatlarini oshirib xotiralarida saqlash qobiliyati o'sadi. Hatto sahnalashtirish o'quvchini har tomonlama yo'naltiradi, ya'ni aktivlik qobiliyatini rivojlantiradi, suxandonlik, rejissorlik kabi kasblarda ilk tasavvurlarni o'rgata boshlaydi. Asarni sahnalashtirish davrida albatta o'qituvchi rahbarlik qiladi. O'quvchilar ifodali o'qishlari o'quvchilarda zavq-shavq uyg'otib kitobga, badiiy asarga havas, uni o'qib o'rganishga intilish uyg'otadi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qituvchi o'quvchilarni bolalar yozuvchilari va shoirlar bilan tanishtirib borishi lozim. Q.Muhammadiy, P.Mo'min, Z.Diyor, A.Obidjon kabi yozuvchi va shoirlarning asarlari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun har bir maktab, ta'lim muassasi o'quvchilar o'rtasida turli mavzularda ijod ahli bo'lgan shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etib turishlari kerak. Bunday uchrashuvlar o'quvchilarni vatanni madh qilishga uni sevib ardoqlashga chaqiradi.

Kitobni, asarni qanday paydo bo'lishini, uni hurmat qilish, asrab-avaylashni o'rgatadi.

Badiiy adabiyot, bolalar adabiyoti voqelikni haqqoniy aks ettirish, yorqin obrazlar yaratish bilan bolalarda estetik did va axloqiy sifatlarni mujassamlashtiradi. Ularda hayot go'zalligini idrok etishga o'rgatadi. So'z san'ati badiiy asarda o'z ifodasini topadi. Xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuch-qudrati va jozibasiga qadim zamonlardananoq e'tibor berib kelingan. Badiiy so'z xalqning barcha madaniy boyliklarini abadiylashtirgan. Buning uchun esa o'quvchi albatta og'zaki xalq ijodini yaqindan o'rganishi lozim. "Ertaklar-yaxshilikka yetaklar", deganlaridek o'quvchi ertaklar bilan tanishar ekan mard, jasur, vatanparvar, mehribon bo'lishga, topishmoqlar o'qir ekan, topog'on, bilimdon, zukko bo'lishga intiladi. Shu bilan bir qatorda sinfdan tashqari o'qish darslarini samaradorligini o'stirishda "Sinfdan tashqari o'qish" burchagini yuritish juda katta ahamiyatga ega. Chunki, "Sinfdan tashqari o'qish burchagi turlicha bezatilishi mumkin. Bu ishlar o'quvchilarning ilg'or pedagogik mahoratiga va ijodkorligiga bog'liqdir. "Sinfdan tashqari o'qish burchagi" qanday bezatilmasin, u yerda topshiriq, rasm va shu kabilarni ilib qo'yish uchun taxta yoki kitob javoni bo'lishi shart. 150x100 kattalikdagi stend devorga qistirilib, uning tepa qismiga "Sinfdan tashqari o'qish burchagi", deb yozub qo'yiladi. O'quvchilar navbatdagi sinfdan tashqari o'qish darsigacha o'qishlari uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati unga joylashtirilishi mumkin. Masalan: "Do'stlik" mavzusida sinfdan tashqari o'qish burchagi tashkil qilsak ishni quyidagicha bajaramiz.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar:	Ertak asosida chizilgan sur'atlar va aplikatsiyalar.
<ol style="list-style-type: none"> 1. "Laylak bilan tulki" o'zbek xalq ertagi. 2. "Arslon bilan it". Lev Tolstoy. 3. "Kapalak" Zulfiya. She'rlar to'plami. 4. "O'tinchi yigit bilan sher" ertak. 5. "Ko'ngilchan o'tinchi" ertak. 	<p>O'qilgan adabiyotlar.</p> <p>O'quvchilar tavsiya qiladigan adabiyotlar.</p>

6. “Asalari bilan pashsha” ertak.

O’quvchilar ikki hafta davomida kitoblar bilan tanishadilar. O’zlariga yoddan asar qahramonlarining rasmlarini chizadilar, aplikatsiyalar bilan bezatilgan rasmlar ham tayyorlashlari mumkin. Hafta yakunida o’qigan kitoblari asosida sahna ko’rinishlari tayyorlaydilar, monolog va diologlar o’qiydilar. Savol-javob, test uslublaridan foydalanadilar.

Darslar jarayonida o’rgangan xalq maqollari, hikmatli so’zlar, tez aytishlardan foydalanib o’quvchilarning o’g’zaki nutq ko’nikmalarini shakllantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o’stirishga ega bo’ladilar. Masalan: “Mehnatsevarlik” mavzusida quyidagi interfaol uslublardan foydalanish mumkin.

Mehnat-mehnatning.....rohat	Mehnat.... keltirar
Hunar-hunardano’nar	Ishlagan tishlaydi, Ishlamagan
Ishlaganing o’yingga, o’rganganing	Halol mehnat yaxshi odat, berar senga
Yigit kishiga	Harakating erta bo’lsa Kuzdao’rasan.
Gap bilan berma, Ish bilan dalda ber	Mehnat.....bersa to’yimli.

Kelajagimiz bo’lgan yosh avlodni milliy qadriyatlarimizni bilgan holda aqlan yetuk, jismonan sog’lom qilib tarbiyalash biz murabbiylar, ustozlar zimmasidadir. Shunday ekan, mashaqqatli, ammo sharaflil kasbimizni bajarishda izlanuvchan ijodkor bo’lishimiz zarurdir. Chunki birinchi Preidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, “Farzandlarimiz bizdan ko’ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo’lishlari shart”.

Bugungi kunda axborot ma’lumotlarining ortib borishi o’quvchilarning ilm olishiga chanqoqligi, mustaqil fikrlashshi va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklar va

kashfiyotlarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta'lim mazmuniga talabchanligi, o'qituvchining o'z ustida ishlashga, malakasini oshirib borishiga va ongini yanada rivojlantirishga, ta'lim tizimidagi barcha yangiliklardan baxobar bo'lib borishi kerakligicha asosiy motiv bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda pedagogika faniga, ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovasiyalar, yangi pedagogik pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirib va qo'llanib bolishi, ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarni milliy qadriyat ruhida tarbiyalash uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishi lozim. U o'z o'quvchilarini fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi.

Biz sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etishning mavjud imkoniyatlarini o'rganish maqsadida, Termiz shahar 9-umumiy o'rta ta'lim maktabida pedagogik amaliyotda bo'ldik. Amaliyot davomida tajriba-sinov ishlarini tashkil etdik. Ishimizni boshlang'ich 1-4 sinflarning O'qish kitobi darsligining tahlili bilan boshladik. Unga ko'ra: **1-sinf** O'qish kitobi, mualliflari T.G'afforova, E.Shodmonov, G. Eshturdievalar, tomonidan, 12-nashr, "Sharq" nashriyot-matbaa aktsiyadolik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent-2016 yilda nashr qilingan. Darslikda: O'zbekiston - mening vatanim, Biz - buyuklar avlodi, Ko'klam- yashnaydi olam, Ilm - aql chirog'i, Xalq o'giti – baxt kaliti, Odob – insonga husn, Mehnatning tagi – rohat, Mustaqil o'qish uchun mavzularda boblar berilgan. **2-sinf** O'qish kitobi, mualliflari T.G'afforova, Sh.Nurullaeva, Z.Mirzahakimovalar tomonidan, 3-nashr, "Sharq" nashriyot-matbaa aktsiyadolik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent-2016 yilda nashr qilingan. Darslikda: Ona Yurtim - oltin beshigim, Maktabim – qutlug' makonim, kitobim – oftobim, Oltin kuz – hosiling yuz, Mehnat baxt keltirar, Kumush qish - misoli oqqush, Otalar so'zi - aqlning ko'zi, Zumrad bahor bahridiling ochar, Qushlar, hayvonlar - bizning do'stimiz, Ertaklar yaxshilikka yetaklar, Tabiatni

asrang, avaylang, Yoz o'tadi soz mavzularda boblar berilgan. **3-sinf** O'qish kitobi, mualliflari M.Umarova, X.Hamroqulova, R.Tojiboeva tomonidan, "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2016 yilda nashr etirilgan. Darslikda: Ona bitta Vatan yagona, Xalq og'zaki ijodi, Kuz manzarasi va mehnat, O'tmishni o'rganish burchimiz, Kumush qish, Vatan himoyachilari, Orzular qanotida, Ulug'lardan o'rganmoq oqillik, Keldi bahor gulbahor, Tabiani seving va asrang, Go'zal fazilat inson husni, 9-may xotira va qadrlash kuni, Yoz fasli soz fasli mavzularda boblar berilgan. **4-sinf** O'qish kitobi, mualliflari S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G'ulomova, Sh.Sariev, Z.Dolimovlar tomonidan, 5-nashr Toshkent "Yangi yo'l poligraf servis"-2015 yilda nashr qilingan. Darslikda: Istiqlolim istiqbolim, O'zbekiston vatanim manim, Oltin kuz, Ma'naviyat qalb quyoshi, Xalq og'zaki ijodi, Ertaklar malakatida, Adabiy ertaklar, Kumush qish, Vatanimiz o'tmishidan, Nima yaxshi-yu nima yomon?, Hayvonot olamida, Zumrad bahor, Yashasin tinchlik bor bo'lsin do'stlik, Ajdodlarimiz faxrimiz, Jahon bolalar adabiyoti, Yoz o'tadi soz mavzularda boblar berilgan. Darsliklardagi har bir bobdagi mavzular o'quvchilarni vatanni ardoqlashga, uning har bir qarich yerini muqqadas bilishga qolaversa boshlang'ich sinf o'quvchilarini tafakkurini rivojlantirishga qaratilganligini guvohi bo'ldik. Darsliklar tahlilidan so'ng boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'qish darslarini kuzatdik. Sinfdan tashqari o'qish darslarining ham o'tish holatini tahlil qildik. O'tilgan darslar ko'proq an'anaviy tarzda tashkil qilinganligini, pedagogik texnologiyalardan foydalanish darajasi sustligi aniqlandi. Dars oxirida o'qituvchi va o'quvchilar bilan savol-javoblar va anketa so'rovnomasi o'tkazildi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilib ularga quydagi anketa savollari bilan murojat qilindi. Anketa so'rovnomada 18 nafar o'qituvchilar ishtirok etdi.

1. Sinfdan tashqari o'qish darslari nima uchun tashkil etiladi?
 - A) o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish
 - B) o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirish
 - V) o'quvchilarni kitobga bo'lgan muhabbatini shakllantirish

2. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda qanday vositalardan foydalanish mumkin ?

A) kitoblardan

B) gazeta va jurnallardan

V) video rolik va lavhalardan

3. Sinfdan tashqari o'qish darsarini qanday tashkil etish mumkin?

A) an'anaviy

B) no'anaviy

V) munozarali

4. Sinfdan tashqari o'qish darsarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash mumkinmi?

A) ha

B) yo'q

V) ba'zida

5. Pedagogik texnologiya nima va uni qanday tushunasiz?

A) darsda qo'llanilgan usullar majmuasi

B) o'qituvchining san'ati va mahorati

V) darsni samarali o'tish

Savolnomaga ishtirok etgan o'qituvchilar o'z javoblarini quydagicha izohlab berishdi. Birinchi: Sinfdan tashqari o'qish darslari nima uchun tashkil etiladi? savoliga qatnashgan 18 nafar o'qituvchidan, 6 nafari o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish, 7 nafari o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirish, 5 nafari o'quvchilarni kitobga bo'lgan muhabbatini shakllantirish, deb javob berdilar.

Ikkinchi: Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda qanday vositalardan foydalanish mumkin? savoliga 6 nafari kitoblardan, 7 nafari gazeta va jurnallardan, 6 nafari video rolik va lavhalardan deb javob berdilar.

Uchinchi: Sinfdan tashqari o'qish darsarini qanday tashkil etish mumkin? savoliga 8 nafari an'anaviy, 6 nafari no'anaviy, 4 nafari munozarali deb javob berdilar.

To'rtinchi: Sinfdan tashqari o'qish darsarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash mumkinmi? savoliga 5 ha, 7 nafari yo'q, 6 nafari ba'zida deb javob berdilar.

Beshinchi: Pedagogik texnologiya nima va uni qanday tushunasiz? savoliga 7 darsda qo'llanilgan usullar majmuasi, 5 o'qituvchining san'ati va mahorati, 6 nafari darsni samarali o'tish deb javob berdilar.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida erkin tafakkuri va kitobxonlikni rivojlantirishda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarining o'rni va ahamiyati kattadir. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini pedagogik texnologiyalardan foydalanib interfaol metodlar asosida tashkil etish, unda har bir metoddan samarali va maqsadli foydalanish, ko'proq o'quvchilarning erkin ijodiy imkoniyatlarini ko'ra olish va ularni jalb etish muhim ahamiyatga ega.

I. Bob uchun xulosa

O'sib kelayotgan yosh avlodda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, sog'lom va barkamol naslni tarbiyalab etishtirish murabbiylarning muhim burchidir. Chunki mustaqil fikrlovchi o'quvchilargina kelajakda har tomonlama yetuk, barkamol insonlar bo'lib yetishib, mustaqil respublikamizni ilg'or jahon davlatlari qatoriga olib chiqadilar. Ayni kunda respublikamiz ta'lim fidoiylari dars berishning o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi usul va uslublarini joriy qilishmoqda. «Aqliy hujum», «Muzyorar», «Intervyu», «Debat», «Bahs-munozara», «Guruhlarga bo'lib ishlash», «B, B, B», «Klaster», «Chigil yozdi», «Konferentsiya» kabi ko'plab dars berish usullari bugungi kunda o'qituvchilarimiz tomonidan samarali qo'llanib kelinmoqda.

Ammo shunday muammolar borki, ayrim o'qituvchilar tomonidan bu usullar noto'g'ri va samarasiz foydalanilmoqda. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda o'z kasbini, qolaversa, o'z mutaxassisligini bilmaydigan o'qituvchilarga bu usullar juda ma'qul bo'lmoqda. «Innavatsion pedagogik texnologiyaning talabi shu», «o'quvchilarni mustaqil o'qishga va fikrlashga o'rgatayapmiz», degan bahonalarda darsga tayyorgarliksiz keladigan o'qituvchilar ham anchagina.

O'qituvchi qaysi mavzuni qaysi dars o'tish usuli va uslublaridan foydalangan holda o'rgatishni oldindan rejalashtirmog'i lozim. Har bir darsni qaysi usul va uslublardan foydalangan holda olib borsa, samarali bo'lishini aniq bilishi kerak. O'quvchilarni darslik bilan ishlashga, ularni kitobni mutola qilishga o'rgatmog'i lozim. Chunki, kichik yoshdagi hozirgi zamon boshlang'ich sinf o'quvchisi komil inson bo'lish tarbiyasini kitobdan o'rganadi. Kitobga mehr qo'yish esa uni istiqboli ravshan bo'lgan orzular sari yetaklaydi. Aynan, sinfdan tashqari o'qish bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, bog'lanishli nutqni o'stirish, adabiy-estetik tafakkurlarni yuksaltirishga xizmat qiladi. Xususan, bolalar adabiyoti esa o'quvchilarga jonajon o'lka, tabiyatini, kishilarning mehnati, hayoti, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklari, bolalar hayotidan olingan voqelikni, bolalarning o'yinlarini tushunshga o'rgatadi.

II.Bob. Sinfдан tashqari o'qish darslari samaradorligini oshirish usul va vositalari

II.1. Sinfдан tashqari o'qish darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish ijtimoiy zaruriyat sifatida

Jamiyat taraqqiyoti hozirgi davrda ijtimoiy hayotning barcha sohalarini texnologiyalashtirishni taqazo qilmoqda. Ayniqsa, pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish har qachongidan ham zaruratga aylanmoqda. Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatlari, belgilari quyidagilar:

- ta'lim jarayonini oldindan loyihalash va sinfda o'quvchilar bilan qayta ishlab chiqish;
- tizimli yondashuv asosida o'quvchining o'qish-bilish faoliyatini tasvirlaydigan ta'lim jarayoni loyihasini tuzish;
- ta'lim maqsadi real, aniq diagnostik bo'lishi va o'quvchining bilim o'zlashtirish sifatini obektiv baholash;
- ta'lim jarayonining tuzilishi va mazmuning yaxlitligi, o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sirda bo'lishi;
- ta'lim shakllarini optimallashtirish, qulaylashtirish;
- ta'lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining o'zaro ta'sirini hisobga olish;
- ta'lim maqsadlarini ko'zlangan etalon asosida o'quvchilarning kuzatiladigan, o'lchanadigan harakatlari shaklida juda oydinlashtirish;
- talabaning faolligiga tayanib o'qitish;

- bilim o'zlashtirish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab, tuzatib borish;
- shakllantiruvchi va jamlovchi baholar;
- belgilangan mezonlarga binoan test vazifalarini bajarish;
- ta'limning rejalashtirilgan natijasiga erishishning kafolatlanganligi;
- ta'lim samaradorligining yuqoriligi.

Aniqroq qilib aytganda pedagogik texnologiyaga asoslangan faoliyat deganda, ta'lim funksiyasini amalga oshirishdagi mahorat va san'at tushunilib, u juda qulay usullar asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga asoslanadi.

Xususan, bugungi kunda ta'limning barcha bosqichlarida interfaol metodlari keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish, milliy ma'naviy sifatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimini nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi.

Bu borada o'qituvchi darslarda foydalanishi mumkin bo'lgan ayrim pedagogik vositalar: ta'kidlovchi savollar bunda o'quvchining bergan savollariga qarab, uning fikrlash darajasini aniqlash mumkin. O'qituvchi alternativ, o'quvchini faollikka chorlovchi savollar orqali sinfda ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o'xshashlik va farqini topish singari xususiyatlarni rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Savollar berish bilan birgalikda o'quvchilarda, fikrlashga majbur qiluvchi savollar tuzish qobiliyatini ham shakllantirib boradi.

Quyida biz ba'zi interfaol metod va usullarni sanab o'tamiz: aqliy hujum, klaster, mustaqil xat, Venn diagrammasi, harakatli ma'ruza, o'zaro ta'lim, muallifga savollar, «bilaman, bilishni istayman, bilib oldim», insert, bahs-munozara, sinkveyn, qadriyatlar tizimi, debat, hamkorlikda izlanish, blits-o'yin, argumentlangan esse va boshqalar. Ularning ba'zilarini qo'llash usullari to'g'risida ma'lumot berib o'tamiz.

“Aqliy hujum”. “Aqliy hujum” metodining mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni yechish jarayonlarini vaqt boʻyicha bir qancha bosqichlarga (gʻoyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqish) ajratishdan iborat. Dars jarayonida aqliy hujumdan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandart tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi. “Aqliy hujum”ni uyushtirish bir muncha sodda boʻlib, undan taʼlim mazmunini oʻzgartirish jarayonida foydalanish bilan birgalikda ishlab chiqarish muammolarining yechimini topishda ham juda qoʻl keladi. Dastlab guruh yigʻiladi va ular oldiga muammo qoʻyiladi. Bu muammo yechimi toʻgʻrisida barcha ishtirokchilar oʻz fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning oʻzga kishi gʻoyalari hujum qilishi yoki baholashiga haqqi yoʻq. Demak, “aqliy hujum” yoʻli bilan qisqa minutlarda oʻnlab gʻoyalarni yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud boʻladi. Aslini olganda gʻoyalar sonini qoʻlga kiritish asosiy maqsad emas, ular muammo yechimini oqilona ishlab chiqish uchungina asos boʻladilar. Bu metod shartlaridan biri hech qanday tashqi taʼsirsiz qatnashuvchilarning har biri faol ishtirokchi boʻlishi kerak. Bildirilgan gʻoyalarning besh yoki oltitasigina asosiy hisoblanib muammo yechimini topishga salohiyatli imkoniyatlar yaratadi. SHunday qilib, “aqliy hujum” qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- olgʻa surilgan gʻoyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, gʻoyalar qancha koʻp boʻlsa shuncha yaxshi;
- istalgan gʻoyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;
- muammo yechimidan uzoq gʻoyalar ham qoʻllab-quvvatlanadi;
- barcha gʻoyalar yoki ularning asosiy magʻzi (farazlari) qayd etish yoʻli bilan yozib olinadi;
- “Aqliy hujum”ni oʻtkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish koʻzda tutilishi kerak.

Vazifasi. “Aqliy hujum” qiyin vaziyatlardan qutulish choralarini topishga, muammoni koʻrish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilliligini yoʻqotishga

va keng doirada tafakkurlashga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni yechish jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o'tiladi va guruh (sinf) yanada jipslashadi.

Ob'ekti: qo'llanish maqsadiga ko'ra bu metod universal hisoblanib tadqiqotchilikda (yangi muammoni yechishga imkon yaratadi), o'qitish jarayonida (o'quv materiallarini tezkor o'zlashtirishga qaratiladi), rivojlantirishda (o'z-o'zini bir muncha samarali boshqarish asosida faol fikrlashni shakllantiradi) asqotadi.

Qo'llanish usuli. "Aqliy hujum" ishtirokchilari oldiga qo'yilgan muammo bo'yicha har qanday mulohaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib borildi va ularning mualliflari o'z fikrlarini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflandi va hujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy hujum tugagach, muhimlik jihatiga ko'ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi va muammoni yechish uchun zarurlari tanlanadi.

Klaster. (Klaster-tutam, bog'lam)-axborot haritasini tuzish yo'li- barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish. Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi. Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog'oz varag'ining o'rtasiga asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi. Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar "yo'ldoshlar" yozib qo'shiladi. Ularni "asosiy" so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu "yo'ldoshlarda" "kichik yo'ldoshlar" bo'lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugagunicha davom etishi mumkin. Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar. Klasterni tuzish qoidasi.

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.

3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.

Venna diagrammasi - 2 va 3 jihatlarini hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Diagramma Venna tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik gurhlarda diagramma Vennani tuzadilar va kesishmaydigan joylarni (x) to'ldiradilar. Juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar. Doiralarni kesishuvchi joyida, ikki/uch doiralar uchun umumiy bo'lgan, ma'lumotlar ro'yxatini tuzadi.

B/BX/B jadvali- Bilaman/ Bilishni hohlayman/ Bilib oldim. Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida /kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar. "Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz" va "Nimani bilishni xohlaysiz" degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo'naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va 2 bo'limlarini to'ldiradilar. Ma'ruzani tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar.

Sinkveyn. Axborotlarni qisqacha bayon qilish, murakkab g'oyalarni, sezgilarni, tasavvurlarni bir necha so'zlar vositasida bayon qilish imkoniyati muhim malakadir. Bu boy tushunchalar zahirasi asosidagi o'ylangan refleksiyaning talab qiladi. Sinkveyn bu she'r bo'lib, u biror voqea munosabati bilan yoziladigan yoki refleksiya qilinadigan qisqa ifodalarda axborot va materiallarning sintezlanishni talab etadi. Sinkveyn so'zi frantsuzcha so'z bo'lib, "besh" degan tarjimani beradi. Demak, sinkveyn besh qatordan iborat she'rdir. Sinkveynni yozib chiqish qoidasi quyidagicha:

1. Birinchi qatorda bir so'z bilan mavzu yoziladi (odatda ot turkumidagi oid so'z bilan).

2. Ikkinchi qatorda mavzu ikki soʻz bilan tavsif qilinadi (sifat turkumiga oid ikki soʻz bilan).

3. Uchinchi qatorda ushbu mavzu boʻyicha xatti-harakatlar uch soʻz bilan tavsif etiladi.

4. Toʻrtinchi qatorda temaga aloqadorlikni koʻrsatuvchi 4 soʻzdan iborat gap (ibora) yoziladi.

5. Beshinchi qator mavzu mohiyatini takrorlovchi bir soʻzdan iborat sinonimdir “Munozara”. Bu metod yordamida oʻquvchilarga muayyan muammo boʻyicha toʻliq axborotlar yetkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni oʻquvchilar ayovsiz “shturm” qiladilar va pirovard natijada muammoga tegishli maʼlumotlarni atroflicha oʻrganadilar. Munozarani oʻtkazish metodikasi.

1. Munozara olib boruvchi - boshlovchi (oʻqituvchi, jurnalist, boshliq va hokazo) mavzuni oldindan tanlaydi va ishtirokchilarni taklif etadi.

2. Boshlovchi ishtirokchilarga “aqliy hujum” topshirigʻini beradi va uning qoidalarini tushuntiradi:

- “hujum”dan maqsad - muammo yechimiga oid variantlarni mumkin qadar koʻproq taklif etish;

- oʻz aql-idrokingizni markazlashtirishga harakat qiling va diqqatni muammo yechimiga qaratgan holda fikrlar bildiring. Bildirilgan gʻoyalar umumiy fikrga zid boʻlsada, hech biri rad etilmaydi;

- boshqa ishtirokchilar gʻoyalarini ham rivojlantiring;

- taklif etilganlarni baholashga urinmang, bu ish bilan siz keyinroq shugʻullanasiz.

3. Boshlovchi kotibini tayinlaydi va u yuzaga kelgan barcha gʻoyalarni yozib boradi. Muhokama vaqtida soʻzga chiquvchilar tartibi oʻrnatiladi, munozaraga barcha ishtirokchilar jalb etiladi va ularga oʻz fikrlarini ifodalash uchun imkoniyatlar berildi. Agar biror bir kishi tomonidan “aqliy hujum”ni oʻtkazish qoidalari buzilsa, boshlovchi zudlik bilan muhokamaga aralashadi. Birinchi bosqich yangi gʻoyalar paydo boʻlguncha davom etaveradi.

4. Boshlovchi ishtirokchilarning tanqidiy tafakkuri “charxlanishi” uchun qisqacha tanaffus eʼlon qiladi. Keyin ikkinchi bosqich boshlanadi. “Aqliy hujum”

ishtirokchilari guruhlanadi va birinchi bosqichda bildirgan g'oyalarini mustahkamlaydilar. G'oyalar guruh bo'yicha birlashtirilib, mualliflar ularni tahlil qilishga kirishdilar va natijada o'rta qo'yilgan muammoning yechimiga tegishli bo'lgan fikrlargina ajratib olinadi. Boshlovchi munozaraga yakun yasaydi.

“Kichik guruhlarda ishlash”. Kichik guruhlarda ishlash o'quvchilarning darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan sinfda o'rganishga imkoni tug'ildi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi. Qo'llanish usuli. 1. Faoliyatni tanlash. Mavzuga oid muammo shunday tanlanadiki, natijada o'quvchilar uni o'rganish (bajarish) uchun ijodiy faoliyat ko'rsatishlari zarur bo'ladi va vazifalar belgilab olinadi.

2. Zaruriy asos yaratish. O'quvchilar kichik guruh ishida qatnashishlari uchun tanlangan faoliyat bo'yicha ba'zi bilim, ko'nikma va malakalarni oldindan egallagan bo'lishlari kerak.

3. Guruhni shakllantirish. Odatda har bir guruhda 3-5 o'quvchi bo'ladi, (ehtimol, kam yoki ko'p bo'lishi mumkin). Agar guruhda ishlash u yoki bu yozma hujjat tayyorlashni talab etsa, yaxshisi 2-3 kishili guruh tuzilgani ma'qul. Guruh o'lchovi masalaning muhimligi, sinfdagi o'quvchilar soni, o'quvchilarning bir-biri bilan konstruktiv holatda o'zaro harakatiga bog'liq holda o'zgaradi. Eng yaxshisi, “getrogen” guruh tashkil etishidir (jinsi, o'zlashtirish darajasi va boshqa belgilar asosida). Guruhda ishlash o'quvchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlashga tayanadi. (Misol uchun, bir o'quvchi munozarani boshqaradi, ikkinchisi yozib boradi, uchinchisi spiker (sardor) rolini o'taydi va hokazo). Sinfni guruhlarga ajratish, hohish bo'yicha yoki hisob bo'yicha amalga oshiriladi.

4. Aniq yo'l-yo'riqlar ko'rsatish. O'quvchilarga faoliyatni bajarish bo'yicha aniq va xajm jihatdan ko'p bo'lmagan tushuntirish beriladi. O'qituvchi guruhlarning ishlash tezligi turlicha bo'lishini inobatga olgan holda vaqt chegarasini aytadi. Guruhlar kerakli materiallar va axborotlar bilan ta'minlanadi. O'quvchilar guruhda ishni boshlashlari uchun vazifalarini aniq tushunib yetganligi tekshirib ko'riladi.

5. Qo'llab quvvatlash va yo'naltirish. O'qituvchi zarurat tug'lsa guruhlar yoniga navbatma-navbat kelib to'g'ri yo'nalishda ishlayotganligini qayd etadi yoki ularga yordam beradi, guruhlarga ta'ziyq o'tkazilmaydi.

6. Muhokama qilish va baholash. Guruhlarda ish yakunlangach, ular natijalari bo'yicha axborot beradilar. Buning uchun har bir guruh o'z sardorini belgilaydi. Zarurat tug'lsa, faoliyat natijalari bo'yicha bildirilgan fikrlar o'qituvchi tomonidan yozilib borildi. Muhimi, guruhning yechimining asoslanishini aniqlashtirib olishdi. Agar vaqt yetarlicha bo'lsa, u yoki bu fikrni argumentlashda guruhlar bir-biriga savol ham berishlari mumkin. Kichik guruhlarda ishlash natijalari o'qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda faoliyatni to'g'ri va aniq bajarish, vaqt sarfi asosiy mezon hisoblanadi.

“Debatlar”. Debatlar asosida darslarni tashkil etishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad muammoning yechimini topishda o'quvchi o'zgalarni o'z yondashuvining to'g'riligiga ishonirishdir. O'z fikrini aniq va mantiqiy bayon etish, buning uchun esa ishonarli dalillar va xulosalar topish ko'nikmalarini shakllantirishda debatlar o'tkazish samarali metod hisoblanadi. Ular o'quvchilarda ijtimoiy fikrni o'zgartirishga ta'sir etish qobiliyati mavjudligiga ishonch tuyg'ularini rivojlantiradi.

Metodik tavsiyalar: Debatlar mavzusini anglab yetishlari uchun o'quvchilarga sharoit tug'diriladi. Buning uchun esa mavzuni *rezolyutsiya* shaklida ifodalash kerak bo'ladi. Ma'lumki, rezolyutsiya har doim mavjud holatni o'zgartirishni talab etadi. Mashg'ulotga mahalliy mutaxassislardan (olim, vrach, muhandis, ijtimoiy arbob va boshqa) biri taklif etiladi.

Debatda qatnashish uchun iqtidorli o'quvchilar tanlanadi va ular ikki guruhga ajratiladi: rezolyutsiyani qo'llab-quvvatlaydigan va ularga qarshi chiquvchi ishtirokchilar debatlarini o'tkazish qoidasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Guruh sardori reglamentga rioya qilishni kuzatuvchi - yordamchini tayinlaydi.

“Konstruktiv argumentlar” (3-5 ta holatga asoslangan; mantiqiy ifodalangan va daliliy materiallar bilan mustahkamlangan argumentlar tayyorlash uchun o'quvchilarga yetarlicha vaqt beriladi. Ularga muammoning ko'lamini anglash va

bahsda o'z fikrini saqlab qolishlari uchun aniq, mantiqiy argumentlar tayyorlashda o'qituvchi yordam berishi kerak. SHu bilan birgalikda o'quvchilar qarshi tomon bildirgan fikrlarni qanday bo'lishi mumkinligini taxmin qilishlari va oldindan bu fikrlarni inkor etishga ham tayyorgarlik ko'rishlari lozim. Bahslashuv natijasida o'quvchilar nimalarni qo'lga kiritish mumkinligini tushunib yetsagina dars samarasi to'g'risida gapirish mumkin. O'quvchilarni shunday dalil-isbot topish ko'nikmalarini egallashga o'rgatish kerakki, natijada bildirilgan fikrni qarshi tomonning muhokama qilishiga o'rin qolmasin. SHundagina o'quvchilar tengdoshlarining qarashlarini hurmat qilishga yoki xususiy tasavvurlarini sinfdoshining fikri oldida ojiz ekanligini tan olishga o'rganadi, eng asosiysi, ularda erkin fikr yuritish ko'nikmalari shakllana boradi. Debatlarni o'tkazish tartibi:

1. O'qituvchi va debat ishtirokchilari sinfdan joy olishadi. Qulay bo'lishi uchun rezolyutsiyani qo'llab-quvvatlaydiganlar o'qituvchining o'ng tomoniga, qarshilar esa chap tomoniga joylashishgani ma'qul.
2. O'qituvchi qisqacha muhokama mavzusini va ikkala rezolyutsiya variantlarini bayon qiladi, so'zga chiquvchilar uchun vaqtni belgilaydi.
3. O'qituvchi dastlab rezolyutsiyani qo'llaydiganlarning birinchisiga so'z beradi va undan konstruktiv argumentlarni bayon qilish so'raladi. Iloji bo'lsa so'zga chiquvchilar tartibini har bir guruh a'zolari uchun oldindan belgilash kerak. O'qituvchining yordamchisi gapiruvchi uchun ajratilgan vaqtning tugaganligini eslatib turadi.
4. O'qituvchi rezolyutsiyani qo'llaydigan guruh o'quvchilarini birinchisiga so'z beradi va u o'z fikrini yetarlicha argumentlar yordamida asoslab beradi.
5. O'qituvchi birinchi guruhning ikkinchi raqamli o'quvchisiga so'z beradi, so'ngra ikkinchi guruhning ikkinchi raqamli o'quvchisi o'z fikrlarini rezolyutsiya bo'yicha bayon qiladi. SHu holat barcha debat ishtirokchilari navbatma-navbat chiqish qilgunlariga qadar davom etadi.
6. Keyingi bosqichda har bir ishtirokchiga qarshi tomonning dalillarini inkor etib tashlashga va ular tanqidiga javob berish- ga imkoniyat tug'diriladi.

7. Masala talashish davomida yangi argumentlarni keltirish mumkin emas. Bahsni har doim rezolyutsiyaga qarshi tomon vakillari boshlashadi.

8. O'quvchilar bu bosqichda rezolyutsiyaga nisbatan u yoki bu mavqeni egallash sabablarini bayon qilishadi. O'qituvchi bu sabablarni sinf doskasiga yozib borishi ham mumkin. O'quvchilar bu sabablarga tegishli savollarga javob berishlari ham mumkin, biroq o'z mavqeining to'g'riligini oqlashga kirishib ketmasliklari kerak.

8. Ishtirokchilar shunday argumentlarni ko'rsatish kerakki, birinchidan ularning qarashlari muammo yechimiga zid ham bo'lishi mumkin, ikkinchidan, barchani o'ylashga majbur etsin, uchinchidan, hayratda qolarli darajada ifodalanishi lozim.

9. Debat dars so'ngida o'quvchilar qarshi tomon qabul qilgan rezolyutsiyaning joriy etilishi oqibatlarini baholashishi kerak. SHuningdek, har ikki tomondan o'rtaga tashlangan qarashlarni hayotga tadbiq etish jamiyat uchun qanchalik foydali yoki zararli ekanligi ham muhokama qilinishi mumkin.

Bu usullar asosan boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarining samaradorligini oshirishda qo'llaniladi (chaqiruv, anglash, fikrlash) va har birida o'qituvchi o'quvchilarga tegishli topshiriqlar beradi. Bu metodlar va usullar o'quvchida kommunikativ qobiliyatning o'sishiga, o'quvchilar orasida hissiy aloqa o'rnatilishiga, muammoli vaziyatlar yechimiga, guruhda ishlashni, o'zgalarning fikrini tinglay olishni va o'z fikrini mustaqil bayon etishni o'rgatibgina qolmasdan, unda o'ziga ishonch, bilimiga tayana olish, qiziqishlarining kuchayishiga, keng fikrlashga olib keladi.

«2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» doirasida ta'lim sohasida samarali islohotlar olib borilmoqda. Xususan, maktablar ta'mirlanib, o'quv-laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanmoqda. Ta'lim mazmuniga ham alohida e'tibor qaratilib DTS o'quv dasturlarining yangi tahrirdagi variantlari tajriba-sinovdan o'tkazilmoqda. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida turli interfaol metodlardan, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun ta'lim-tarbiya jarayonini jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etilmoqda.

Milliy dasturning strategik maqsadlariga erishishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, o'quv reja va dasturlari, o'quv-metodik majmualar, yosh avlodni o'qitish, tarbiyalashning zamonaviy shakl va usullarini rivojlantirib borishning o'zni hamda ahamiyati kattadir. Yoshlarni ma'naviy, axloqiy tarbiyalashning boy milliy tarixiy-madaniy an'analari, xalq urf-odatlarini, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy va pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Inson ma'naviy ruhiga ta'sir etishda va ma'naviyatini mustahkamlashda ta'limning roli benihoya kattadir. Ta'limning qay darajada berilishi esa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmi, bilimdonligi, iqtidori, uslubining rang-barangligiga bevosita bog'liqdir. Shu boisdan ham boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ma'naviyat elementlarini singdirish vazifasi o'qituvchilardan tinmay o'z bilim ko'lami va doirasini kengaytirib borishni talab etadi. Hamda ular dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ma'naviy tarbiya bo'yicha maqsad va vazifalarini aniq belgilashlari va bunda kafolatlangan natijalarga erishish uchun ta'lim jarayonini loyihalash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim. Pedagogik innovasiyalarni yaratish va qo'llash ta'lim-tarbiya sohasida bugungi dolzarb muammolarni hal qilishga yordam beradi. Shu boisdan ham pedagogik innovasiyalarni izlab topish, tahlil qilish asosida eng ko'p samara beradiganlarini tanlab olish va ularni amaliyotda qo'llash tartibini belgilash maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchini faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan usullarni, o'qitish shakllari va vositalarini izlaydi, takomillashtiradi.

Boshlang'ich ta'limda sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchilarni ma'naviy tarbiyalashga, ularni darsga nisbatan qiziqishlarini orttirishga, milliy ma'naviy merosimizga sodiqlik, ajdodlar ruhini hurmat qilishga, mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan interfaol usul

metodlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ta`limda moddiy baza, standart, o`quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o`zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg`ulotlarni olib boruvchi o`qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga pedagogik mahoratiga bog`lanib qolaveradi, o`quv- biluv markazida esa o`quvchi turmog`ini taqozo etadi.

Har qanday ta`lim o`quvchi shaxsiga, uning qiziqish, xoxish istagiga ehtiyojiga qaratilmog`i kerak. Ya`ni ta`limni individuallashtirishga qaratilmog`i talab etiladi. Ta`limni individuallashtirish nima? degan savolga javob beraylik:

- Ta`lim jarayonini individuallashtirish shunday o`qitish usuliki, bunda har bir o`quvchi o`quv jarayonida faol ishtirok etib, o`quv biluv jarayoniga shaxsiy hissa qo`shishi hisobga olinadi;
- Ta`lim jarayonini tashkil etishda o`qituvchining uslubiy yondashuvi, tezkorligi, o`quvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olinadi;
- O`quv-metodik, psixologik, pedagogik tashkiliy boshqaruv ishlarini olib borishda o`quvchi shaxsi o`quv biluv markazida bo`ladi.

Guruhlarda ishlaganda, o`quv tarbiyaviy ishlarni tashkil etganda har bir o`quvchi bilan yakkama-yakka ishlaganda ularning shaxsiy xususiyatlari doimo o`qituvchi diqqat markazida turmog`i, hisobga olinmog`i kerak. O`quvchi bilan muloqot olib borganda ham, uning o`ziga xosliklari diqqat e`tiborda tutilishi lozim. Ta`lim jarayonida ham, uning qobiliyati, imkoniyatlari nazarda tutilishi, shuningdek pedagogik-psixologik jarayonlarni olib borishda o`quvchining shaxsiy rivojlanish darajasini ko`zda tutish yuqori samaradorlikka erishishning garovidir. Individuallashtirish ta`lim prinsiplari quyidagilardan iborat:

1. Individuallashtirish – o`quv jarayonining bosh strategiyasidir.
2. O`quv jarayonini individuallashtirish orqali - shaxsni rivojlantirish ta`minlanadi.
3. Har bir o`quv predmetini o`qitishni individuallashtirish bilan integrasiyalash sharoiti yaratiladi.

4. Individuallashtirilgan ta'lim – o'quv jarayonini sifat va samaradorligini ta'minlaydi.

5. Individuallashtirilgan ta'limda ko'nikma, malaka, bilim olish o'quvchining qiziqishi asosida kechadi.

6. Mustaqil ishlay olish o'quvchining umum o'quv ko'nikmasini rivojlantiradi, taraqqiy ettiradi.

Demak, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligi o'quvchining o'quv mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil mutolaa bilan samarali shug'ullanishi, mustaqil fikr yuritishi va tafakkur faoliyati bilan bog'liq.

Interfaol metodlarda dars jarayonini olib borishda o'quvchilarda quyidagi xususiyatlarning rivojlanishini ko'rsatish mumkin. O'quvchi o'qitilmaydi, uni mustaqil o'qish, o'rganish ishlashga o'rgatiladi. Bunda o'quvchilar mustaqil ravishda tahlil qilish orqali o'zlashtirishga, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar asosida erkin fikr yuritishga o'rgatiladi. Bizga yod fikrlarga qarshi fikr yurita olish, o'z pozitsiyasini himoya qila olish ko'nikmalari shakllantiriladi. O'quvchiga bilimlar tayyor holda berilmasdan, bilimlarni darsliklardan, internetdan, turli boshqa manbalardan izlash, topish, qayta ishlash orqali uning bilim olish malakasi shakllantiriladi. Olgan bilimlari orqali ijodiy mushohada yuritish, imkoniyati yaratiladi. O'quvchini darsliklar bilan ishlash, o'qish, o'rganish, konspekt yozish, qo'shimcha adabiyot, spravochniklardan foydalanib mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalarini egallashga o'rgatiladi.

Sinfdagi barcha o'quvchilarning o'z qobiliyatlari darajasida albatta o'zlashtirishlari kafolatlanadi. Bunda o'quvchining o'zlashtirganligi olgan bilimlarini hayotda, amaliy faoliyatda foydalana olish ko'nikma va malakalari bilan belgilanadi. Barcha o'qituvchi-o'quvchilar interfaol metodlar asosida ishlashni o'rganib, uni o'z o'quv-biluv faoliyatlariga olib kira olsalar barcha o'quvchilar bir xil natijalarga erisha oladilar. Noan'anaviy shaklda dars jarayoni tashkil etilganda:

1. O'quvchining o'zaro faolligi oshadi, hamkor, ijodkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

2. O`quv reja, dastur, darslik, standart me`yor, qo`llanmalar, mavzu mazmuni bilan ishlash malakalari shakllanadi.

3. Ta`lim mazmunini, matnini mustaqil mutolaa qilish, ishlash, o`zlashtirish kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi.

4. O`quvchi erkin fikr bildirish, o`z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi.

5. Eng muhimi o`quv jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi. Ya`ni o`quvchining ehtiyoj, xohish, istagi qondiriladi. O`quv-biluv jarayonida o`quvchining manfaatdorligi oshadi. Bu holat o`quvchini o`quv maqsadlariga erishishda yuqori bosqichga ko`taradi.

6. O`qitish mazmuni yaxshi o`zlashtirishga olib keladi.

7. O`z vaqtida o`quvchi-o`qituvchi-o`quvchilar orasida ta`limiy aloqalar o`rnatiladi.

8. O`qitish usullari ta`lim jarayonida turli xil ko`rinishlarda kechadi (yakka, juft, guruh, katta guruhlar).

9. O`quv jarayoni o`quv ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivasiyaga ega bo`ladi.

10. O`zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o`quv materiali yaxshi esda qoladi.

11. O`quvchida o`zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish, fikr almashinish ko`nikmalari shakllanadi.

12. O`quv jarayonida – o`quvchining o`z-o`ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi.

13. O`quvchi uchun dars qiziqarli o`qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi, o`qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo`ladi.

14. Har bir o`quvchining o`zi mustaqil fikr yurita olishga, ishlanishga, mushohada qilishga olib keladi.

15. Interfaol usulda o`tilgan darslarda o`quvchi faqat ta`lim mazmunini o`zlashtiribgina qolmay, balki o`zining tanqidiy va mantiqiy fikrlashini ham rivojlantiradi.

Albatta noan'anaviy darslardan tashkil etishning ham o'ziga yarasha kamchiliklari mavjud.

1. O'quv-biluv jarayoni ko'plab vaqt sarflashni talab qiladi.
2. Interfaol mashg'ulotlarida barcha o'quvchilarni keraklicha nazorat etib borishning imkoniyati bo'lavermaydi.
3. Juda murakkab materiallar o'rganilayotganda o'quvchilar muammoni to'laqonli, aniq echa olmaydilar, bunday sharoitlarda o'qituvchining roli past bo'lishi hollari kuzatiladi.
4. Guruhlarda o'quv jarayoni kechayotgan kuchsiz o'quvchilarning ishtiroki tufayli kuchli o'quvchilar ham past ball yoki baho olish hollari kuzatiladi.

Bunday sharoitda o'qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo'yicha mushohada yuritishga, muammolarni o'z vaqtida echa oladigan qobiliyatga ega bo'lishi kerak. Interfaol usullarda darsni tashkil etishda o'quvchi shaxsini rivojlantirishni o'ziga-o'zi zamin yaratishda boshlash kerak. Ya'ni o'quvchi:


- o'zi mustaqil mutolaa qilish, o'qish asosida bilim olishga;
- o'zini-o'zi anglab etishga, anglab tarbiya topishga;
- o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga;
- o'quv mehnatiga ma'suliyat hisi bilan qarashga;
- o'z faoliyatini mustaqil tashkil eta olish, har bir minutni g'animat bilishga;
- o'quv mehnatiga o'zida xohish istak uyg'ota olishga;
- har qanday vaziyatda faollik ko'rsata olishga;
- ayniqsa, hozirgi tezkor axborot manbalaridan unumli foydalani olishni asosiy bosh maqsad qilib olishga o'rganmog'i zarur.

Shuning uchun ham hozirgi kunda o'quvchining o'z-o'zini rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogika, didaktika fani oldida o'z echimini kutayotgan dolzarb muammolardandir. Keyingi vaqtlarda o'qituvchilar orasida shaxsga qaratilgan ta'lim nima, interfaol usulida o'qitish nima uchun zarur? Bu usul qachondan o'quv jarayoniga kirib kelgan? Uning qanday turlari mavjud? Tarkibiy tuzilishi qanday? Uni o'quv jarayoniga qanday olib kirish kerak, uni

avvalgi usullardan farqi nimada kabi savollarga duch kelamiz. Buning uchun shu kunlarda maktablarimizda olib borilayotgan an`anaviy darslarni yana bir marotaba eslab o`tish joizdir. An`anaviy o`qitish XVII asrda Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy tomonidan taklif etilgan. U o`qitishning yagona klassik tizimini ishlab chiqib, uni sinf-dars sistemasi deb yuritadi. Keyinchalik bu sistema pedagogikada keng tarqalgan. An`anaviy maktab sinf-dars tizimi nomini olish u quyidagicha o`ziga xos an`analarga ega:

- Taxminan bir xil yoki yaqin yoshli bolalar tayyorgarlik darajasi yaqin bolalar sinfini tashkil etadi.
- Sinf yagona reja, dastur, dars jadvali asosida ishlaydi.
- Asosan mashg`ulot turi yagona dars hisoblanadi.
- Dars ma`lum o`quv predmeti, temaga bir xil material ustida ishlaydi.
- O`quvchilar faoliyatini o`qituvchi boshqaradi, har bir o`quvchining bilim darajasini baholaydi, yil oxirida o`quvchini sinfdan-sinfga ko`chirishni ham u hal qiladi.
- Darsliklar asosan uy ishini bajarishda, uyda qo`llaniladi.

An`anaviy dars sxemasi quyidagicha ko`rinishga ega.



An`anaviy darsning konseptual holati quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- Ilmiylik
- O`quvchi tabiatiga mosligi
- Ketma-ketlik, tizimliliigi
- Tushunarligi
- Mustahkamligi

- Anglash va faollik
- Ko`rgazmalilik
- Nazariyaning amaliyot bilan bog`liqligi, amalda qo`llay bilish.

An`anaviy darsning kamchiliklari :

- Darsning bir qolipdaligi, bir xilligi;
- Boshlang`ich malumot berilib, uni o`zlashtirish jarayoni uyga reja, vazifa orqali amalga oshadi;
- O`quvchilar passiv eshituvchi va mustaqilligi yo`q;
- O`quvchilar bir-biri bilan fikr almashadilar, nutqiy fikr almashuv amalga oshmaydi;
- Qayta aloqalar yo`lga qo`yilmaydi;
- Har bir faoliyat o`rtacha o`quvchiga yondashuv asosida kechadi;
- Ta`lim mazmuni asosan o`qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Shu jumladan sinfdan tashqari o`quv ishlarini mustaqil ravishda tashkil qilish ishlari bevosita samarali vosita hisoblanadi va u ayni paytda an`anaviy dars tashkil qilish shakliga zid ravishda olib boriladigan dars turi hisoblanadi.

Mamlakatimizda ta`lim tizimini takomillashtirish va uni hozirgi zamon talablariga moslashtirish, zamonaviy informatsion texnologiyalarga asoslangan jahon andozalari darajasidagi tizimni yaratish umumdavlat siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanmoqda. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da uzluksiz ta`lim tizimini isloh etish asosida, jamiyatning rivojlanishi talablarini hisobga olgan holda, yetuk mutaxassislarni tayyorlash, masalalariga katta e`tibor berilgan. Bu vazifalarni hal qilish uchun esa birinchi navbatda, o`quv jarayonini tubdan isloh qilish, unga jahonning rivojlangan davlatlarida keng qo`llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni izchillik bilan tatbiq etish zarur. Chunki, pedagogik texnologiyalar o`quvchilarda o`zaro faollik, harakat, ta'sirchaklik, o`quvchi va o`qituvchi muloqotlarida sodir bo`ladi. Interfaol ta'limning bosh asosiy maqsadi o`quv jarayonida o`quvchi uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o`quvchining faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratadi. U o`zini intellektual salohiyatini to`la namoyon etadi va o`quv sifati va samaradorligini oshiradi.

II.2. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida sinfdan tashqari o'qish samaradorligini oshirish usul va vositalari

Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlikning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o'qish darslaridir. Bunday darslar erkin dars hisoblanadi. STO' darslarida o'quvchilarning kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi; faol kitobxonga xos ko'nikma va malakalar shakllanadi. Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning qurilishi juda xilma-xil bo'ladi. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchining ijodi hisoblanadi; darsda qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishilsa, maqsadga erishish oson kechadi. Shularga qaramay, STO' darslari o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishi uchun ma'lum talablarga bo'ysunadi. Ular quyidagilardir:

1. Har bir darsda o'quvchilar o'qigan kitoblar (asarlar) hisobga olinadi. Ular o'qigan va o'qiyotgan kitoblarini sinfga olib kelib ko'rsatadilar, ikki-uch o'quvchi o'zlari o'qigan kitob haqida gapirib beradi, darsda o'zaro fikr almashish holati yaratiladi (bu holat darsdan tashqari vaqtda ham davom etishi mumkin).

2. Har bir darsda o'qish uchun yangi kitob (asar)lar tavsiya qilinadi. Tavsiya qilish shakllari turlicha bo'lib, ular fikr almashuv, kitobni ko'rsatish, sinfdan ko'rgazma tashkil etish, o'quvchilarni qiziqtirish uchun tavsiya qilinadigan kitobdan biror parchani o'qib berish, rasmlarni ko'rsatish yoki film namoyish etishdan iborat bo'lishi mumkin.

3. Har bir darsda o'quvchilarga asarni yaxlit holda o'qitish mumkin. Agar asar hajmi kattaroq bo'lsa, bu ish ikki-uch dars davomida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar o'zlari o'qigan kitobdan biror parchani ovoz chiqarib o'qib berishlari mumkin. Bu jarayonda ichda o'qishdan ham, she'r yodlashdan ham, rollarga bo'lib o'qishdan ham foydalaniladi.

4. Har bir darsda o'qilgan asar yuzasidan suhbat metodi orqali tahlil ishlari amalga oshiriladi. Bunda erkin hikoya qilish uchun "Senga asardagi nimalar

yoqdi?", "Bu kitob haqida sen nimalar ayta olasan?" kabi savollar beriladi va o'quvchilarning ijodiy hamda mustaqil qayta hikoyalash malakalari shakllantiriladi.

5. Har bir darsda ma'lum bir yangi kitobxonlik ko'nikmasi hosil qilinadi: muallif haqida ma'lumotlar to'plash, kitob nomiga qarab u nima haqida ekanligini aytish, o'qilgan asarlar yuzasidan ko'rgazmalar tayyorlash, asarga taqriz yozish, albomlar tayyorlash, kitobxonlik kundaligini yuritish kabi ishlar amalga oshiriladi.

6. Har bir dars kirish suhbat bilan boshlanadi va sinfda o'qish darslarida qo'llanadigan barcha usullardan ijodiy foydalaniladi.

7. Har bir darsda tahlil qilingan asarlar yuzasidan umumlashtiruvchi, yakunlovchi suhbat uyushtiriladi. Umumlashtirishga ko'rgazma ham, albom tuzish ham, rasmlarni tatbiq etish ham yordam beradi.

Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlikning yordamchi shakllari ham mayjud bo'lib, ular barcha ishlarni izchil uyushtirishni ta'minlaydi, STO' darslari uchun sharoit yaratadi. Bunday shakllarga quyidagilar kiradi:

1. Kitobni targ'ib qilish. STO'ga tavsiya qilinadigan asarlar ro'yxati sinfga yoki maktabning maxsus joyiga osib qo'yiladi, ular vaqti-vaqti bilan yangilab turiladi, to'ldiriladi, ko'rgazmalar tashkil qilinadi. O'qituvchi maxsus suhbatlar uyushtiradi.

2. Yakka tartibdagi yordam va kundalik tekshiruv. O'quvchilarning o'qigan kitoblari yuzasidan suhbat uyushtiriladi, o'qilgan kitoblar hisobga olinadi. Shaxsiy fikrlar aniqlanadi, uy kutubxonalari bilan tanishiladi, ota-onalar bilan suhbat o'tkaziladi.

3. STO' yuzasidan ommaviy ishlar. Adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar uyushtiriladi, ular uchun maxsus tayyorgarlik ko'riladi.

4. Kutubxonaga yozilish. 1-sinf o'quvchilari o'qituvchining tavsiyasi bilan kutubxonaga a'zo bo'ladi. Bu jarayonda o'qituvchi va kutubxonachi hamkorlikda ish olib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

5. O'quvchilarning o'qiganlarini hisobga olish. Bunda ularning kitobxonlik kundaligidan foydalaniladi. 1-sinf o'quvchilari 2-yarim yillikdan boshlab kitobxonlik kundaligiga yozuvchining ismi, familiyasi

va kitob nomini, 2-sinfda esa unga nashr etilgan joyi va yilini qo'shib yozadilar. 3-4-sinflarda o'qigan kitobining qisqacha mazmunini yozib, unga taqriz va o'z mulohazalarini ham qo'shishlari mumkin.

O'quvchilarning o'qigan kitoblari og'zaki tarzda ham hisobga olinadi: ular o'qiganlari yuzasidan sinfdan tashqari o'qish va sinfdan o'qish darslarida, yakka tartibdagi suhbatlarda gapirib beradilar.

Sinfdan tashqari o'qish darslarining turlari. Sinfdan tashqari o'qish darslarining xususiyatlari, birinchidan, STO' tizimining bosqichiari bilan, ikkinchidan, o'quv vazifalari va dastur bilan, uchinchidan, oldinga qo'yilgan tarbiyaviy vazifalar bilan, to'rtinchidan, o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi.

1-sinfda tayyorlov bosqichida yangi matn o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi, boshlang'ich bosqichdagi darslarda yangi kichik hajmli matnni o'quvchilar o'qiydilar.

Keyingi bosqichlarda asar tahliliga doir ishlar kengaytiriladi, o'quvchilar o'qiganlarini taqqoslashga, umumlashtirishga, xulosalashga, qahramonlarni elementar tavsiflashga o'rgatiladi. Bu jarayonda rollarga bo'lib o'qishdan foydalaniladi. Asosiy bosqichda STO' darslari 2-sinfda haftada 1 marta, 3-4-sinflarda 2 haftada 1 marta o'tkaziladi. O'quvchilar mustaqil o'qishga o'rgatiladi, ular "G'uncha", "Gulxan", "Bilimdon" jurnallari, "Tong yulduzi" gazetasi bilan, ya'ni bolalar matbuoti bilan tanishtiriladi. Bu bosqichda o'zbek, qardosh va chet el adabiyoti yozuvchilarining turli janrdagi va mavzudagi asarlaridan foydalaniladi. Bir darsga o'quvchilar bir nechta asarlar o'qib kelib, ular haqida o'z fikrlarini aytib beradilar, qahramonlarni tasvirlab, rasm chizadilar. Bu jarayonda yozuvchilar hayoti va ijodiga doir kechalar uyushtiriladi. Shu tarzda adabiyotni sevadigan, mustaqil fikr yurita oladigan kitobxon shaxsi shakllantiriladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qilgan kitobni muhokama qilish, ijodiy qayta hikoyalash, insenirovka qilish, rasmlar chizish, ifodali o'qish, kitoblar tavsiya qilish kabi bir qancha samarali usul va voitalardan keng foydalaniladi. Quyida biz boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sinfdan tashqari o'qish darslarida foydalanilgan dars ishlanmalaridan namunalar keltirib o'tamiz.

I. 1-sinfda (tayyorlov bosqichi) STO' darsi.

Mavzu: Cho'pon yigit Shiroq.

Darsning maqsadi:

- a) afsonaviy qahramonlar haqida ma'lumot berish;
- b) o'quvchilarda vatan tushunchasini, vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash.

Darsning metodi: suhbat, munozara.

Darsning jihozi: asar mazmunini yorituvchi rasmlar.

Darsning borishi

1. Kirish suhbat.

O'quvchilardan vatanini dushmandan asragan qahramonlardan kimlarni bilishlari so'raladi. To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro nomlari sanalib, Shiroq degan qahramon ham o'tganligini, uning qahramonligi haqida xalqimiz, "Cho'pon yigit Shiroq" degan afsona yaratgani aytiladi.

2. "Cho'pon yigit Shiroq" afsonasi o'qib beriladi.

3. Afsona yuzasidan dastlabki suhbat va munozara o'tkaziladi:

- Afsona sizga yoqdimi?
- Unda kimning qahramonligi hikoya qilib berilgan?
- Shiroq nima uchun xanjari bilan burni, quloqlarini kesadi?
- Keyin Shiroq kimning oldiga boradi?
- U shoh Doroga nima deydi?
- Shiroq Doro qo'shinlarini qayerga olib boradi?
- Shiroq nima deb hayqiradi?

O'quvchilar javobi umumlashtirilib, vatanni sevish, uning tinchligi uchun kurashish kerakligi ta'kidlanadi.

4. Asarga ishlangan rasmlar ko'rsatiladi. Bu jarayonda asar mazmuni yuzasidan rasmlarga bog'lab qisqacha suhbat uyushtiriladi.

5. Shiroq rasmini uyda chizib kelish topshirig'i beriladi. O'quvchilarga otalaridan qahramonlar haqida ertak, hikoya bilib kelishlari va ota-onalariga Shiroq haqida gapirib berishlari aytiladi.

II. 2-sinfda (boshlang'ich bosqich) STO' darsi.

Mavzu: Tabiat - mening uyim.

Darsning maqsadi: she'r mazmuni bilan tanishtirish va tabiat haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, she'r o'qish sifatlarini takomillashtirish, tabiatga mehr-muhabbat hissini kuchaytirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars usuli: suhbat, tushuntirish.

Dars jihozi: tabiat manzarasi tasvirlangan plakat, rasmlar, qushlarning rasmlari.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.

O'quvchilarning uyda o'qib kelgan asarlari so'raladi. Olib kelgan kitoblari ko'rib chiqiladi.

2. Yangi mavzu: "Tabiat - mening uyim".

1. Bir necha o'quvchiga "Tabiat- mening uyim" she'ri 4 qatordan yod aytiriladi.

Dalalarni aylansam,

Uzoq xayolga botsam,

Chigirtkalar qo'shig'in

O'tloqda tinglab yotsam.

Tabiat - mening uyim,

Tabiat - jonimda jon.

Shivirlayman men unga

Va onamga: - Onajon!

Shundanmi ko'ksim og'rir

Zaharlansa ona yer.

Tabiat - mening uyim,

Tabiat - eng go'zal she'r.

Shivirlasam giyohga

Xapqirgancha: - Ey ko'kat,

Nega keldim dunyoga,

Yashamoq sirin o'rgat?!

Toshni yorgan giyohlar

Sabotdan dars o'qisin.

Oy cho'milgan daryolar

Bolaga she'r to'qisin.

Uchadi bola tomon

Shu sabab mening so'zim:

-Tabiat - jonimda jon,

Tabiat - mening uyim.

She'r yuzasidan suhbat uyushtiriladi:

- She'r nima haqida ekan?

- Tabiat, shoirning uyi ekanligi haqida ekan.

- Tabiat yana kimlarning uyi? Nima uchun?

- Tabiat mening ham uyimdir. Men shu tabiat qo'ynida tug'ildim, ulg'aydim.

- Abror, tabiat sening ham uyingmi?

- Tabiat mening ham uyimdir. Negaki men ham shu tabiat qo'ynida yashayman, tabiat qo'ynida o'sgan mevalardan iste'mol qilaman.

- Bolalar, hozir o'rtoqlaringiz o'qigan she'rning muallifi kim? U nimani kuylayapti?

- Bu she'r X.Davronning "Tabiat - mening uyim" she'ri.

- She'rda shoir "dalalarni aylanaman, chigirtkalar qo'shig'ini eshitaman, bulbullarni shod qilsam, o't bilan suhbatlashsam, mushukni sut bilan mehmon qilsam, xayron bo'lmang. Ular mening do'stlarim. Ular bilan ko'nglim xush. Tabiat mening uyimdir", - deb aytyapti (1-o'quvchining javobi).

- "Mening tomiringa tutash o't ildizi, tunlari oy va yulduzlari daftarimni yoritadi. Ona yer zaharlansa, ko'ksim og'riydi. Sen uni asra, mangu qolsin, o'lmasin", - deyapti (2-o'quvchining javobi).

Hurmatli, o'quvchilar! Demak, biz tanishgan she'rimizda tabiat kuylangan ekan. Tabiat bizning ikkinchi onamiz. Chunki biz onamiz va tabiat quchog'ida yashaymiz. Shuning uchun ham biz uni "Ona tabiat" deb ataymiz. Biz uning bag'ridagi o'simliklarni, qushlarni, hayvonlarni, dengiz-u ko'llarni va boshqa

boylklarni asrashimiz, e'zozlashimiz kerak. Tabiat insonga birgina toza suv, havo, oziq-ovqat, kiyim-kechakkina emas, sog'lik, a'lo kayfiyat ham beradi.

Bolalar tabiatimizni qushlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Ular tabiatning nodir va g'alati jonivorlaridan biridir. Qushlar zararkunanda hasharotlarni yeb, kishilarga foyda keltiradi va estetik zavq baxsh etadi. Siz ularning sayrashidan olam-olam zavq olasiz. Masalan, bulbul, sa'va va boshqalar (Shu o'rinda qushlarning rasmi ko'rsatiladi va "Bahor vals" kuyi eshittiriladi).

- Hasharotlardan kapalak va ninachilar tabiatimizning jonli bezagidir. Kapalaklar chiroyi bilan o'ziga maftun etadi. Gullar chamani uzra qanot qoqib, hayot qo'shig'ini kuylashadi. Lekin hozirgi kunda ularning turlari kamayib ketgan. Buni hamisha yodda tuting. Ularni asrang, ermakka kapalak tutmang. (Rasm ko'rsatiladi)

- Bizning hayotimizda o'simliklar ham katta o'rin tutadi. Ayniqsa, yalpiz, qoqi o't, otquloq kabi ko'katlarning inson salomatligini tiklashda o'rni kattadir.

- Bolalar bizning hayotimizda yana bir muhim narsa obihayotdir. Biz suvsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Mana shu suv ham tabiat qo'ynidan inju bo'lib oqadi. Suvni ham asrashimiz kerak. Buning uchun daryolarni, ko'llarni, irmoqlarni saqlamog'imiz darkor. Turmushda, kundalik hayotimizda suvlarni tejab ishlating! Tabiatimizning bundan ham chiroyli, obod bo'lishi siz bilan bizning qo'limizda ekan. O'quvchilarning tabiat haqida yod olgan she'rlaridan, topishmoq va maqollardan aytiriladi:

Dengiz-u daryoda yashar, Asosan ko'klarda kezar.

Zeriksa bormi, osmondan Zamin uzra qaytib tushar (Suv).

Ikki yaproq bir tanda, Kezar gulzor chamanda. (Kapak)

Shu o'rinda shoirlarning tabiat haqidagi har xil kitoblari ko'rgazmasini uyushtirish ham mumkin. Uyga vazifa qilib gullar haqida she'rlardan yod olib kelish beriladi. Keyingi darsda "Gullar aytishuvi" uyushtiriladi. Dars yakunlanadi.

III. 4-sinfda (asosiy bosqich) STO' darsi namunasi.

Mavzu: A. Obidjon - bolalarning sevimli shoiri va yozuvchisi.

Darsning maqsadi: o'quvchilarda badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otish, ularning mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, Anvar Obidjon ijodi bilan tanishtirish, shoirning ijodiga qiziqish uyg'otish, o'quvchilarda ijodkorlik xususiyatini paydo qilish.

Darsning shakli: noan'anaviy, sayohat darsi.

Dars metodi: kichik guruhlarda ishlash, mustaqil ish metodi.

Darsning jihozi: Anvar Obidjon portreti, to'plamlari, sahnani jihozlash uchun kerakli narsalar.

Darsning borishi

1. Anvar Obidjon to'plamlari ko'rgazmasi tashkil etiladi.

O'quvchilar kitoblarni qo'llariga olib, varaqlab ko'radilar, tomosha qiladi.

O'quvchilarga to'plamlarni ko'rishlaridan oldin quyidagi topshiriqlar beriladi:

- Anvar Obidjonning qanday to'plamlari bor?
- Shoir to'plamlarining nomini bilib oling.
- O'zingizda qiziqish uyg'otgan to'plamni varaqlab o'rganing.

2. Anvar Obidjon hayoti va ijodi haqida suhbat o'tkaziladi:

- Anvar Obidjon kim ekan?
- Uning qaysi she'r va asarlarini o'qigansiz?
- Shoir haqida yana nimalarni bilib oldingiz?

Shoir haqida o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olib ma'lumot beriladi:

- O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon 1947-yil 8-yanvarda Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida tug'ilgan. Uning "Shkafcham" she'ri 6-sinfda o'qib yurgan vaqtlarida "G'uncha" jurnalida bosilgan.

- Siz Anvar Obidjonning qaysi to'plamlari nomini bilib oldingiz?

- "Ona yer", "Bahromning hikoyalari", "Ey, yorug' dunyo", "Ketmagil", "Olovjon va uning do'stlari", "Bezgakshamol", "Masxaraboz bola", "Juda qiziq voqea" va boshq.

- Adibning "Qo'ng'iroqli yolg'onchi", "Pahlavonning o'g'irlanishi", "Topsang hay-hay", "Navro'z va boychechak" kabi pesalari "Yosh tomoshabinlar teatri"da sahnalashtirilgan.

- Anvar Obidjonning kino qilingan qaysi asarlarini bilasiz?
 - “Tilsimoy - g'aroyib qizaloq”, “Dahshatli meshpolvon” va boshq.
3. Anvar Obidjonning sahna asarlaridan parchalar namoyish qilish.
Bunda “Navro'z va boychechak” pyesasidan parcha olish mumkin.
4. O'quvchilar o'zlari qiziqib tanlagan to'plamlari bo'yicha guruhlariga bo'linishadi.
- 1-guruh. “Bulbulning cho'pchagi”.
- 2-guruh. “Bezgak shamol”.
- 3-guruh. “Oltiariq hangomalari”.
- 4-guruh. “Yerliklar”.
- 5-guruh. “Masxaraboz bola”.
5. Guruhlar taqdimoti. Har bir guruh o'zlari tanlagan to'plamlardan she'r, latifa, ertak-pesalardan parchalar o'qib beradi. 1-guruh taxminan “Fatxullaning kurkasi”, “Yirtqich” she'rlarini, 2-guruh “Obbo, kalamush-ey!”
(Kalamushvoy, Kalamush, Savoding sal Chalamish. Yoz desalar “Temir” deb. Sen yozasan Kemir deb), “Masxaraboz bola”, 3-guruh “Karnay qo'shig'i”, “Chigirtka qo'shig'i”, 4-guruh “Tuzdonda yozilgan she'r”, “Partada yozilgan she'r”, 5-guruh “Bezori”, “Handalak”, “Turp”, “Kalish afsonasi”

Seni kiyib olishib,

Rosa kezib yurishdi.

Yo'lakdagi xaslarni,

Dangal ezib yurishdi.

Kalishvoy.

Pisand qilmay qararding.

Eh, o'zingdan pastlarga,

Axir seni yoqishdi

Qo'shib o'sha xaslarga,

Kalishvoy kabi she'rlarni o'qishadi. She'rni ifodali o'qib bergan o'quvchi rag'batlantiriladi.

6. O'qilgan she'rlar yuzasidan suhbat:

—Anvar Obidjon nimalar haqida she'r yozgan?

—“Partada yozilgan she'r” kim haqida ekan?

—Handalak kim haqida so'zlab berdi?

—Bo'rining gaplari rostmi?

—Masxaraboz bola nima uchun “burnimni berib turaman” dedi? Burnini berib tursa, qiziqchi bo'lib qoladimi?

7. O'qituvchi shoir she'rlaridan o'qib beradi:

Ulug'bekning o'g'li bilan vidolashuvi

Taxt o'tkinchi, e nodon,

Men ketdim, sen yashayver.

Ilmsiz yurt — biyobon,

Men ketdim, sen yashayver Shoirning Jaloliddin Manguberdi, shoir Miraziz A'zam, yozuvchi Tog'aymurod va boshqalar haqidagi she'rlaridan o'qib berish ham mumkin.

O'qituvchi aytilgan she'rlar yuzasidan suhbat uyushtiradi.

8. Krossvord yechish.

Topshiriqlar:

Bo'yiga: 1. She'r yozadigan odam.

Eniga: 2. Shoir yozadigan janr. 3. Shoirning ismi. 4. Shoirning familiyasi.

9. Uyga vazifa. Keyingi darsdagi sinfdan tashqari o'qish uchun asarlar tavsiya qilinadi, Anvar Obidjon she'rlaridan yod olib kelish topshiriladi, sahna asarlarini rollarga bo'lib o'qishga tayyorlanib kelish, she'r va sahna asarlari mazmuniga mos rasmlar chizish vazifa qilib beriladi. O'quvchilarning o'zlari ham she'r yozib kelishlari mumkinligi aytiladi.

10. Darsni yakunlash. O'qituvchi keyingi STO' darsida qaysi bolalar yozuvchilari ijodi bilan tanishishni istashlarini so'raydi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarini rejalashtirish. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar badiiy va ilmiy-ommabop kitoblarni mustaqil o'qiy va tanlay oladigan,

ularning mazmun-mohiyatini tushunadigan bo'lishlariga erishish lozim. Bu jarayonda o'quvchilarning faqat kitoblarninggina emas, balki gazeta va jurnallar mutolaasiga ham qiziquvchan faol kitobxon bo'lishlariga e'tibor qaratiladi.

Mayjud dasturlarda sinfdan tashqari o'qish davomida o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bolalar yozuvchilarining asarlarini tanlay bilish, mustaqil o'qigan kitoblarini, ulardagi qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash, asar sujetidagi muhim o'rinlarni ajrata olish, sinfdan tashqari o'qish kundaligi yuritish kabi ko'nikmalarni egallash belgilab berilgan.

Sinfdan tashqari o'qish, o'z navbatida, qiziqarli va o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, o'quvchilarning bilimi va dunyoqarashini kengaytiradi, kundalik hayotga faol munosabat uyg'otadi. Shuning uchun ham bu xildagi darslarning qurilishi ham xilma-xil bo'ladi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilar o'qigan kitoblari hisobga olinadi, yangi kitoblar tavsiya etiladi. Mustaqil mutolaa qilingan asarlar yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlarda asar mavzusi, janri, kompozitsion tuzilishi, sujet qurilishi, qahramonlar timsoliga oid tahlil elementlari o'qituvchi savollari asosida o'quvchilar ongiga singdirila boriladi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida ham kirish va yakuniy suhbatlar o'tkaziladi. Darslar rejasi butun o'quv yili uchun oldindan tuzilishi lozim.

Sinfdan tashqari o'qishning asosiy vazifasi bolalarni mustaqil amaliy faoliyatga o'rgatish, bilimni boyitish va o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishdir. O'quvchilarga sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qishlari zarur bo'lgan kitoblar, ular bilan tanishish tartibi yuzasidan ko'rsatmalar beriladi. Maktab kutubxonasi bilan birgalikda kitob ko'rgazmalari tashkil etiladi. Bu jarayonda kitob muqovasi, tituli, betlarini farqlay olish, asar muallifi, nomlarini, rassomlarni tanib-bilib olish, rasm asosida asarlarning nima haqida ekanini, mazmunini aniqlashga erishish muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarda muayyan mavzularda tavsiya etilgan asarlar ichidan kitob tanlash va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, ularni o'qigan asari mazmunini qisqacha so'zlab berishga o'rgatish lozim. O'qish mavzusi sinfda o'qiladigan asarlar mavzusi bilan uyg'unligiga, ta'lim-tarbiya birligiga, mavsumiy, bosqichli va bolalar

qiziqishiga rioya qilgan holda belgilanadi hamda asarlar tanlanadi. Sinfдан tashqari o'qish uchun tanlanadigan mavzular, asosan, quyidagicha rejalashtirilishi mumkin:

1. Gulla-yashna hur O'zbekiston!
2. Mustaqillik - oliy ne'mat.
3. O'zbekistonning qahramon o'g'lonlari.
4. Tabiat - bizning uyimiz.
5. Odob - oltindan qimmat.
6. Ona tilim - jon-u dilim.
7. Bilim ol, hunar tanla! va boshqalar.

Boshlang'ich sinflarda STO' darslarini rejalashtirishda quyidagilarga asoslaniladi.

1. Mavsumiy tamoyilga va milliy an'analarimiz bilan bog'liq bo'lishiga.
2. STO' darslarini sinfdan sinfga o'tgan sari bosqichli izchillik tamoyili asosida kengaytirib borishga.
3. Sinfda o'qish darslarida o'rganiladigan mavzular bilan bog'liq bo'lishiga.
4. Bolalar yozuvchilarining tavallud kunlari bilan bog'liq holda ularning ijodini o'rganishga.
5. Bolalarning qiziqishlarini hisobga olishga.
6. Adabiy jarayon bilan hamnafas bo'lishiga.
7. STO' uchun beriladigan topshiriqlarning ijodiy xarakterda bo'lishiga.
8. O'quvchilarda mustaqil o'qish ko'nikmalarining shakllanishiga e'tiborni kuchaytirish va rahbarlik shakllarining xilma-xil bo'lishiga.

II.3. Sinfдан tashqari o'qish samaradorligini oshirish borasidagi tajriba-sinov ishlari natijalari

Tajriba-sinov ishlari uchun Termiz shahar 9-umumiy o'rta ta'lim maktabining 2- sinflari tanlab olindi. Tajriba sinov ishlari 2-A, 2-B, 2-V, 2-G sinflarida olib borildi.

Jadval-1

№	Maktab	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi		Jami o'quvchilar soni
		sinf	O'quvchilar soni	sinf	O'quvchilar soni	
1	9	2 ^a	27	2 ^b	31	58
2	9	2 ^v	29	2 ^g	30	59
	Jami	2 ta	56	2 ta	61	117

Tajriba-sinov ishlarini boshlashdan avval tanlab olingan sinflarimizda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijodiy faolligi va bilim samaradorligi qanday darajada ekanligini aniqlash maqsadida 2-A, 2-B, 2-V, 2-G sinflarida O'qish fanidan sinov testi o'tkazildi. Sinov natijalarida o'quvchilar quyidagicha natijaga erishdilar.

Jadval-2

№	Maktab	Tajriba guruhi					Nazorat guruhi					Jami o'quvchilar soni
		Sinf	Past	O'rta	Yuqori	Jami	Sinf	Past	O'rta	Yuqori	Jami	
1	9	2 ^a	11	12	4	27	2 ^b	11	13	7	31	58
2	9	2 ^v	10	14	5	29	2 ^g	12	10	8	30	59
	Jami	2 ta	21	26	9	56	2 ta	23	23	15	61	117

Bunda yuqori daraja - 5 baho uchun, o'rtta daraja – 4 baho uchun, past daraja – 3 baho uchun belgilangan. Sinov test natijalari bo'yicha samaradorlik 2-A sinf 59 %, 2-B sinf 64 %, 2-V sinf 66 %, 2-G sinf 60 % ni tashkil qildi.

Sinov testi natijalaridan so'ng 2-A, 2-V sinflari tajriba guruhiga, 2-B, 2-G sinflari esa nazorat guruhiga ajratib olinildi. Tajriba guruhida tanlagan 2-A, 2-V sinf o'quvchilarining O'qish darslarida sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari yuqorida keltirib o'tilgan dars ishlanmalaridan foydalanib, darslar interfaol metodlar asosida tashkil etildi. Ularda har bir dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar tavsiyalar asosida pedagogic texnologiyalardan foydalanildi. Sinf rahbarlariga pedagogik texnologiyalardan foydalanish borasida amaliy tavsiyalar berib borildi. Nazorat guruhlarida darslar o'qituvchilari tomonidan an'anaviy tarzda tashkil etildi. Pedagogik amaliyot davomida uch oylik suhbat, kuzatish va tahlil jarayoni bo'yicha tajriba-sinov natijalari quyidagicha bo'ldi.

Jadval-3

№	Maktab	Tajriba guruhi					Nazorat guruhi					Jami oquvchilar soni
		Sinf	Past	O'rtta	Yuqori	Jami	Sinf	Past	O'rtta	Yuqori	Jami	
1	9	2 ^a	7	14	6	27	2 ^b	12	13	6	31	58
2	9	2 ^v	8	13	8	29	2 ^g	11	10	9	30	59
	Jami	2 ta	15	27	14	56	2 ta	23	23	15	61	117

Bu ko'rsatkichlarni foiz hisobida ko'rsatilsa quydagicha bo'ladi.

Jadval-4

№	Maktab	Tajriba guruhi					Nazorat guruhi					Jami o'quvchilar soni
		Sinf	Past	O'rta	Yuqori	Jami	Sinf	Past	O'rta	Yuqori	Jami	
1	9	2 ^a	26 %	52 %	22 %	100 %	2 ^b	39 %	42 %	19 %	100 %	58
2	9	2 ^v	27 %	45 %	28 %	100 %	2 ^g	37 %	33 %	30 %	100 %	59
	Jami	2 ta	53 %	97 %	50 %	200 %	2 ta	76 %	75 %	49 %	200 %	117

Olib borilgan, tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhida O'qish darslarida sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari pedagogik texnologiyalar asosida interfaol metodlarni muntazam ravishda qo'llash asosida tashkil etilganligi sababli samaradorlik 2-A sinfdan 60 % dan 74 % ga, 2-V sinfdan 65 % dan 73 % ga o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

Demak, boshlang'ich sinf sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida har bir dars mavzusidan kelib chiqqan holda interfaol metodlardan foydalanish ularga ta'lim-tarbiya berish bilan birga erkin tafakkurini rivojlantirishga asos bo'ladi.

II. Bob uchun xulosa

O'quv – tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'quvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv – tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, o'quvchini kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nutqai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. SHuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv – tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullaridan foydalanadi. Interfaol bu o'zaro, harakat qilmoq o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol usulubiyotlari bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi. Bu usublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bundan pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi; o'quvchilarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiyligini ta'minlanishi; o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi; pedagogik va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi.

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llanilgan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu aniq keta - ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyhalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Bu holat bugungi kunda o'ta dolzarbligi bilan muhimdir, chunki ushbu jarayon (innovatsion jarayon) ta'lim muassasalarini yashash sharti (bevosita va ko'chma ma'noda ham), kelajak avlodlar va o'qituvchilar jamoasining aloqalarini ijtimoiy himoyalash sharti bo'lib ham xizmat qiladi.

Umumiy xulosa va tavsiyalar

Boshlang'ich sinf o'qish darslarining samarali bo'lishiga erishish uchun bir qator muhim talablarni hisobga olish zarur. Bunday talablarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

I. O'quvchilarning o'zlari va ular yashaydigan oilaga daxldor bo'lgan talablar:

- o'quvchilarni vaqti-vaqti bilan tibbiy ko'rikdan o'tkazib turish, ularning sog'lom o'sishlariga erishish;
- o'qish, o'yin, dam olish va umumfoydali mehnat me'yorini saqlash;
- o'quvchilarni kerakli o'quv qurollari bilan ta'minlash.

II. Maktab va sinf jihozlariga qo'yiladigan talablar:

- sinf xonasining yoritilish darajasi me'yorda bo'lishi;
- sinf xonasiga tashqaridan ta'sir qiluvchi turli sharpa va harakatlarning bo'lmasligi;
- parta, doska va boshqa mebellarning o'quvchilarga mos bo'lishi.

III. O'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatlariga oid talablar:

- dars boshlanishi bilanoq davomatni aniqlash. Kechikib kelgan o'quvchilarning kechikib kelish sabablarini surishtirish.
- O'quvchilarni o'qishning dastlabki kunlaridanoq dars uchun kerakli qurollarni tayyorlab, o'qituvchining kirishini kutib turishga odatlantirish lozim.
- O'qituvchi har bir darsning maqsad va mavzusiga muvofiq holda o'quvchilarning yosh xususiyatlari hamda qobiliyatlariga mos bo'lgan ish usullari tanlaydi. Shuningdek, har bir darsda pedagogik texnologiyalardan foydalanadi. Darsning boshidan oxirigacha bir xil tartibda ish olib borilsa, o'quvchilar uchun zerikarli bo'ladi.
- O'qish darsida o'quvchilarga o'tgan darsda berilgan matn o'qitilib, savol-javob o'tkazish so'ng matn mazmunini gapirtirish lozim. Matnni o'qitmay, bir yo'la mazmunini so'zlatish boshlang'ich sinflarga mos emas. Shuningdek, o'quvchilar matn mazmunini o'z so'zlari bilan gapirishga odatlansinlar, ya'ni kitobdagi gaplarni butunicha yod aytishga yo'l qo'ymaslik lozim.

- O'qish darslarida o'quvchilarga matn o'qishni tavsiya qilishdan oldin o'qish jarayonida nimalarga e'tibor berish kerakligi tushuntirilib, maxsus topshiriqlar berilsa, o'quvchilar mas'uliyati ortadi.
- O'quvchilar "O'qish kitobi"dagi matnni to'g'ri o'qish bilan chegaralanmay, uning mazmuni va g'oyasini tushunishlari kerak.
- Darslarda ko'rgazmalilikdan foydalanish, dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.
- O'qish darslarida o'quvchilarning ko'proq o'qishlariga, yozuv darslarida esa daftarga va doskaga ko'proq yozishlariga hamda mashqlarga keng o'rin berishlari kerak.
- O'qish darsida o'quvchilarda lug'at daftarlari bo'lishi zarur, chunki, matnda uchraydigan yangi so'zlarni o'qituvchi doskaga yozib, izohlagandan keyin o'quvchilar daftarga yozib oladilar.
- Sujetli rasmlar yoki o'qilgan matn yuzasidan beriladigan savollar sodda, tushunarli va qisqa bo'lishi zarur. O'quvchilardan esa har bir savolga to'liq va sodda javob berishlari talab qilinadi.
- O'quvchilarning barcha kitoblari orasida oddiy qog'ozdan yasalgan xatcho'p bo'lishi zarur. Kitobning o'qiladigan varaqlari, vazifa qilib berilgan mashqlar xatcho'p bilan belgilab qo'yiladi. O'qish davomida xatcho'pdan foydalanish qulay bo'ladi,

Yuqorida sanab o'tilganlarni amalda bajarish orqali o'qish darslari samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

Har bir sinfda sinfdan tashqari o'qilgan barcha asrlar o'quvchilarga mos ravishda biror voqeani sahnalashtirish mumkin. Bu boladagi nitqni rivojlantirishga, lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, sahnalashtirilgan asarni tomosha qilgan o'quvchining diqqati oshib xotirada saqlash qobiliyati o'sadi. Hatto sahnalashtirish o'quvchini har tomonlama yo'naltiradi, ya'ni aktyorlik qobiliyatini rivojlantiradi, suxandonlik, rejissorlik kabi kasblarga ilk tasavvurlarni o'rgata boshlaydi. Asarni sahnalashtirish davrida albatta o'qituvchi rahbarlik qiladi. O'quvchilar ifodali, obrazli, shuningdek, qahramonlar harakatini to'g'ri

bajarishlari, o'qishlari o'quvchilarda zavq-shavq uyg'otib kitobga, badiiy asarga havas, uni o'qib o'rganishga intilish uyg'otadi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qituvchi o'quvchilarni bolalar yozuvchilari va shoirlari bilan tanishtirib borishi lozim. Q.Muhammadiy, P.Mo'min, Z.Diyor, A.Obidjon, X. To'xtaboyev kabi yozuvchi va shoirlarning hayoti va faoliyati hamda nodir asarlari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun har bir maktab, ta'lim muassasasi o'quvchilar o'rtasida turli mavzularda ijod ahli bo'lgan shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar va turli kechalar tashkil etib turishi shart. Bunday uchrashuvlar o'quvchilarni vatanni madh qilishga, uni sevib ardoqlashga chaqiradi. Kitobni, asarni qanday paydo bo'lishini, uni hurmat qilish asrab-avaylashni o'rgatadi.

Shunday qilib, sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida turli adabiyotlardan foydalanish xususan, badiiy adabiyot, bolalar adabiyoti voqelikni haqqoniy aks ettirishi, yorqin obrazlar yaratishi bilan bolalarda estetik did va axloqiy sifatlarni mujassamlashtiradi. Ularda hayot go'zalligini idrok etishga o'rgatadi. So'z san'ati badiiy asarda o'z ifodasini topadi. Xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuch-qudrati va jozibasiga qadim zamonlardan oq e'tibor berib kelingan. Badiiy so'z xalqning barcha madaniy boyliklarini abadiylashtirgan. Buning uchun esa o'quvchi albatta xalq og'zaki ijodini yaqindan o'qishi lozim. "Ertaklar - yaxshilikka yetaklar" deganlariday o'quvchi ertaklar bilan tanishar ekan mard, jasur vatanparvar, mehribon bo'lishga, topishmoqlar o'qir ekan, topog'on, bilimdon, zukko bo'lishga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.:“O'zbekiston”, 2014.-74 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni //“Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyoti poydevori”-T.:“O'zbekiston”,1997. - 29 b.
3. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”//Oliy ta’lim (me’yoriy huquqiy va uslubiy hujjatlar to’plami). –T.: “O'zbekiston” 2004.-12 b.
4. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: “O'zbekiston”, 2016, 30-bet.
5. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi .-T.:“O'zbekiston”, 2016, 30-bet.
6. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz -T.: “O'zbekiston”, 2017, 486-bet.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ibot qilish bo’yicha komissiya tuzish” to’g’risida, Toshkent shahri, 2017 yil 12 yanvar.
8. Karimov I.A.Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.T.Ma’naviyat.2008.-171b.
9. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -T. “Sharq” 1993. - 224 b.
- 10.Abu Rayhon Beruniy. Hikmatlar .-T.: “O’qituvchi”, 1973. -174 b.
- 11.Abdullaeva K va boshqalar. Savod o'rgatish darslari.T.,«O'qituvchi».2006 y.
- 12.Abdullaeva Q. Raxmonbekova S. 2-sinf. O'qish darslari. (O'qituvchi kitobi.) Toshkent. O'qituvchi, 2004 y.
- 13.G'afforova T, Shodmonov E, Eshturdieva G. «Alifbe»-(«Savod»); «Ona tili», T., «O'qituvchi», 2009- yil.
- 14.G'afforova T. G'ulomova X. 1-sinfda o'qish darslari (O'qituvchi kitobi.) Toshkent. Sharq. 2008 -yil.
- 15.Shojalilov A. va boshqalar. «O'qish kitobi»,«O'qituvchi», 2004-yil.
- 16.Safarova R. va boshqalar «Alifbe» T., «Ma’naviyat», 2013- yil.

- 17.G'afforova T. Shodmonov E, Eshturdieva G. «O'qish kitobi», 1- sinf uchun darslik T:, «Sharq» 2016- yil.
- 18.T.G'afforova, SH.Nurullaeva, Z.Mirzahakimovalar O'qish kitobi 2-sinf uchun darslik, T:, «SHarq» 2016- yil.
- 19.M.Umarova, X.Hamroqulova, R.Tojiboeva O'qish kitobi 3-sinf uchun darslik, T: «O'zbekiston» - 2016 yil.
- 20.Matchonov S. va boshqalar. «O'qish kitobi», 4-sinf uchun darslik T:, «Yangiyo'l Poligraf Servis» 2015- yil.
- 21.Umarova M. 3-sinfda O'qish darslari (O'qituvchi kitobi.) Toshkent «Ijod dunyosi» 2007.
- 22.Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar. T., «O'qituvchi», 2003- y. 174 b.
- 23.Ma'qulova B. va boshqalar. Boshlang'ich sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari. T, «O'qituvchi», 2006- yil. 89 b.
- 24.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi «Nasaf», 2000.80 b.
- 25.Oripov K, Obidova M. Ifodali o'qish. T., «O'qituvchi», 2002. 134 b.
- 26.Sayidaxmedov N.S., Ochilov A., Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi.- RTM, 2000 55-bet.
27. Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar: Nazariya va amaliyot – Toshkent, «Moliya», 2003. 186 b.
- 28.To'rt yillik boshlang'ich sinflarda STO'. T, «O'qituvchi», 2009- y. 142 b.
- 29.Hasanboev J., To'raqulov X.A., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmonov N. «Pedagogika fanidan izohli lug'at», T.: «Fan va texnologiya». 2009. 271 b.
- 30.Yuldoshev J. Yangi pedagogik texnologiya yo'nalishlari, muammolari, yechimlari – «Xalq ta'limi», 1999 4-son, 4-11 betlar.

Internet ma'lumotlari

1. ziyonet.uz
2. uznet.uz
3. uz.edu.uz
4. fikr.uz



